

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi  
Andijon davlat universiteti

*K. Turg'unboev, X. Ismoilova*



# PEDAGOGIK TRENINGLAR

«Andijon nashriyot-matbaa» MChJ,  
2013

UO'K 37.012.8 (072)

KBK 84 (5 O'zb)

74.58

T-87


Tuzuvchilar: K. Turg'unboev  
X.T. Ismoilova

Taqrizchi: M.B. Ortiqova - pedagogika kafedrası dotsenti, p.f.n

Pedagogik treninglar bo'yicha ushbu o'quv-uslubiy-ommabop qo'llanma Andijon davlat universiteti pedagogika fakultetining 2012-yil 26-iyundagi 11-sonli yig'ilishi qaroriga ko'ra nashrga tavsiya etildi.

Pedagogik treninglar bo'yicha mazkur o'quv-uslubiy-ommabop qo'llanma oliy o'quv yurtlarining barcha ta'lim yo'nalishlarida faoliyat yuritadigan o'qituvchi va talabalarga mo'ljallangan bo'lib, unda pedagogika nazariyasi, umumpedagogika nazariyasi va amaliyoti fanlaridan seminar mashg'ulotlarida mavjud bo'lgan mavzular yoki vujudga keladigan pedagogik vaziyatlar va muammolarni hal qilishda bahs-munozara, o'yin va mashqlardan samarali foydalanish orqali zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

Ushbu qo'llanmadan oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus va kasb - hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari va talabalari hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.



HO 41540  
291

ISBN 978-9943-4137-3-3

© K. Turg'unboev, X. Ismoilova, 2013.

© «Andijon nashriyot-matbaa» MChJ, 2013.

## KIRISH

Xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori o'sib, ma'naviy dunyosi kundan-kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma'naviy asosini yanada mustahkamlashga imkoniyat yaratib bermoqda. Lekin bundan ma'naviyat sohasida hech qanday muammo yo'q, degan xulosani chiqarib bo'lmaydi. Bugungi kunda erkin fuqaro ma'naviyati, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. "Boshqacha qilib aytganda, - deydi Prezidentimiz, - o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, erkin har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak"<sup>1</sup>.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning o'rganilishi, zamonaviy fan-texnika rivoji va yutuqlari bilan qurollangan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan uzviy bog'liqdir. Hozirgi davrda yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish, mustaqil fikr yuritish imkoniyatlarini shakllantirish muammosi respublikamizning ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Ushbu muammoning dolzarbligi to'g'risidagi omil mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning yoshlar muammosiga bag'ishlangan har bir chiqishida, intervyu va fundamental asarlari g'oyasida o'z ifodasini topgan. Yurtboshimiz Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan nutqida ham keng jamoatchilikning diqqat-e'tiborini ushbu mavzuga qaratgan holda shunday fikrlarni muhokamaga tashlagan edilar: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson

<sup>1</sup> I.A.Karimov "Юксак маънавият сийлимас куч". Тошкент "Маънавият" 2008 й. 77-бет.

erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasiz bo'ladi. Albatta, bilim kerak, ammo bilim o'z yo'liga, mustaqil fikrlash ham katta boylikdir". Zero, O'zbekistonning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi"dan ko'zlagan asosiy maqsadi bu - "jamiyatda mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishdan iboratdir".

Dunyo miqyosidagi ijtimoiy-siyosiy hayot kishilik jamiyati taraqqiyotining ayni bosqichi shunday o'ziga xos xususiyatga egaki, unda harbiy qudratgina emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikrlash, yangi texnika va texnologiyalar ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish tufayli ular kelgusida o'z oldilarida vujudga kelishi kutiladigan vaziyat va muammolarni ijobiy ravishda hal qilish orqali xalq xo'jaligining rivojlanishiga, respublikamizning ilg'or texnologiyali jahon davlatlari qatoridan munosib o'rin egallashiga hissa qo'shishga erishish mumkin.

Davlat va jamiyat tomonidan yoshlarning, ta'lim muassasalari mutaxassislari hamda ota-onalarning oldiga qo'yilayotgan vazifalar bevosita pedagogika sohasida yaratilayotgan turli uslublar (trening, suhbatlar, intervyu, anketa usuli, test usuli) yordamida amalga oshiriladi.

Pedagogika sohasi keyingi yillar mobaynida anchagina rivojlandi. Shuningdek, pedagogika sohasining alohida yo'nalishlari sifatida trening tarmog'i ham rivojlandi. Fan sifatida rivojlanayotgan pedagogik trening va uni o'tkazish uslubiyoti mazmun jihatdan ta'lim va tarbiya sohasida treninglarning qanday tartibda tashkil etilishi va o'tkazilishi borasidagi masalalarni yoritishga bag'ishlanadi.

Sizga taqdim etilayotgan ushbu uslubiy-ommabop qo'llanmada ayni kunda pedagogikaning muhim sohasi bo'lgan ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyaning bir sohasi bo'lgan treningning tarixi, bosqichlari, qonunlari, trening o'tkazishda qo'llaniladigan usullar, mashqlar batafsil yoritilgan.

Shuningdek, ushbu o'quv-uslubiy-ommabop qo'llanmada trening o'tkazuvchi mutaxassis duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish uchun tavsiyalar ham berilgan.

## TRENINGNING RIVOJLANISH TARIXI

Psixolog N.Yu.Xryameva 1982-yili LDUning ijtimoiy-psixologiya kafedrasida assistent bo'lib ishlash davrida, guruhlarda ijtimoiy-psixologik treninglarni o'tkazish bo'yicha Leypsiklik mutaxassislar professor Manfred Forverga va uning turmush o'rtog'i Traudl Albergga shogird bo'lib o'tgan. Vaqt o'tgach ijtimoiy-psixologik treninglar o'tkazish bo'yicha Bird o'z tajribasini psixologlarga o'rgata boshladi. Bu psixologlar treningni o'z psixologik faoliyatlari davomida muhim deb hisoblashardi. U aytib berayotgan perspektiv-yo'naltiruvchi treninglar, his qilish, sezish treninglari L.A.Petrovskaya va Yu.N.Yemelyanovlar o'tkazadigan tajribalardan farq qilar edi. Ular o'tkazadigan treninglar eng avvalo ishlab chiqarish, maktab, sog'liqni saqlash, ya'ni tibbiyot tashkilotlari, davlat boshqaruvidagi rahbarlar, ma'muriy boshqaruv, jamiyat uyushmalari, korxonalar, tashkilotlar xodimlarining kompetentligini oshirish maqsadida yo'naltirilgan treninglardir. Keyinchalik asta-sekin boshqa ko'plab kasb egalari bilan trening o'tkazish tajribasi yig'ila boshlandi. Trening sohasi mutaxassislarining metodik tayyorgarligi borgan sari rivojlanib bordi. Ular ko'plab seminarlarga bora boshlashdi va boshqa trenerlarning yondashuvlarini ham o'rganib chiqib, o'zlarining tizimlashgan trening dasturlarini ishlab chiqishdi.

1990-yilda ular S.I.Makmanov bilan birgalikda kreativlik treninglari dasturini ishlab chiqishni boshladi. Bu vaqtda S.I.Makmanov treningning asosi bo'lmish nazariy va uslubiy ishlanmalar bilan shug'ullanayotgan edi va bu metodlar barcha soha mutaxassislarida qo'llanilganda muvaffaqiyatga erishishini bilardi (1998 yil uning "Trening psixologiyasi" monografiyasi chiqdi). Biroz o'tgach ular o'ziga ishonch treningini o'tkazish dasturini ishlab chiqishdi. S.I.Makmanov treningda kam uchraydigan o'zaro ta'sirlar, komanda va boshqalarning

shakllanishi muharriri bo'lib qoldi. Ye.Sidorenko juda noyob trening dasturi muharriri bo'lib, bu trening shaxsga ta'sir etish va begona fikrlarga hamda ta'sirlarga nisbatan qarshilik ko'rsatisini o'rgatar edi. Bu trening dasturlari yangi trening dasturlarini yaratishdagi bir yo'nalish bo'lib, ular Trening instituti trener va konsultantlari bilan birgalikda trening o'tkazish uchun qo'llanilar edi. Eng asosiysi esa, Trening instituti 1993 yil mart oyida tashkil topgan bo'lib, uning tashkil etilishi asosidagi fikrlar bu tashkilot bilan birgalikda rivojlanar va asosiylari uning tashkilotchilari tomonidan boshidayoq anglab yetilgan va shakllantirilgan edi. Ular qilib bo'lmaydigan ishni qilishga urinishdan, birovlariga nimanidir o'rgatishdan, eng asosiysi, o'zlari bilmaganini o'rgatishdan yiroqdirlar. Trening instituti trening sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha o'quv-uslubiy markaz hisoblanadi. Shunga ko'ra barcha ta'lim yo'nalishlarida faoliyat yuritadigan bo'lg'usi psixologlar, pedagoglar uchun 15 kunlik trening sohasidagi metodik tayyorgarlik dolzarbdir. Trening Institutida o'z malakasini oshirish sohasidagi yangi bilimlarni egallash maqsadida 3 bosqichdan iborat bo'lgan metodik mashg'ulotlarni o'qib-o'rganishadi. Bolalar o'smirlar bilan ishlovchi pedagog va psixologlar uchun "Psixopedagogik dramмага kirish" kabi mashg'ulotlar mavjud.

Trening instituti trening sohasida juda ko'plab izlanishlar olib borishi natijasida bu sohaga anchagina yangilik va o'zgarishlar kiritdi. Ularning ishi asosan trening o'tishning nazariy va metodik asosini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, shuningdek, ularni amaliyotga tatbiq qilish uchun zarur vositalarni topishga ham harakat qilishmoqda. Shu bilan birgalikda psixogimnastik mashqlarni qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik qo'llanmalarni ham yarata boshlashdi. Ular sirasiga 2001-yil Sankt-Peterburgda chop etilgan, 3 bobdan iborat "Treningda psixogimnastika" deb nomlangan kitob ham kiradi. Bu kitobda institut xodimlari tomonidan, ko'p yillar mobaynida to'plangan trening, psixologik-pedagogik mashqlar, turli chet el adabiyotlaridan olingan va o'ylab topilgan trening mashg'ulotlari jamlangan. Ularning deyarli barchasi ijtimoiy masalalarga taalluqli bo'lib, 1983-yildan boshlab Leningrad, Moskva, Toshkent, Olma-Ota, Perm, Rostov-Don, Karaganda, Barnaul, Ijevsk, Chelyabinsk, Pskov, Kaliningrad va boshqa ko'plab shaharlarda o'tkazilgan. Barcha mashqlar muharrirlar tomonidan tajribalarda sinalgan bo'lib, ular yaxshi natijalar bergan.

Bugungi kunda hamma uchun umumiy qabul qilingan "trening" tushunchasi yo'q, shuning uchun bo'lsa kerak, pedagog-psixologlar amaliyotida uning ma'nosini anglatuvchi ko'plab metod, shakl va uni tushuntirib beruvchi manba hamda vositalar kabi tushunchalar kelib chiqadi.

Trening termini (ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, train, training) ko'plab ma'nolarga ya'ni: **o'qitmoq, tarbiyalamoq**, (trenirovka) mashq qilmoq kabi ma'nolarga ega. Xuddi shunday ko'p ma'nolilik treningning ilmiy talqiniga ham mos keladi.

Trening insonlarda mavjud bo'lgan xulq-atvori va faoliyatini boshqaruv modelini qayta dasturlash vositasidir.

Trening, shuningdek, tashkilotni rejalashtirilgan faolligini oshirish uchun, kasbiy bilimlarini oshiruvchi, ko'nikmalarini yaxshilashga yo'naltirilgan yoki tashkilotning maqsadli faoliyati talablariga mos keluvchi modifikatsiyasi va jamoatning ijtimoiy xulq-atvorini tuzatish uchun zarurdir.

Psixologiya tarixida trening o'qitishning eng keng tarqalgan shakli faol ijtimoiy-psixologik treninglardir. L.A.Petrovskaya ijtimoiy pedagogik treningga ta'rif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi: «Trening - shaxslararo munosabatlardagi bilimlar, ijtimoiy ustanovkalar, ko'nikma va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgandir», shuningdek «Muloqotda kompetentlikni rivojlantirish vositasi hamdir».

G.A.Kovalev ijtimoiy-pedagogik treningni ijtimoiy-didaktik faol yo'nalishdir deb hisoblaydi. B.D.Parygin guruhli maslahatlar metodlari haqida shunday deydi: Ulardan guruhli maslahatlar, metodlarini faol o'qitish uchun foydalaniladi. Hayotiy ko'nikmalarni, muloqotchanlik sohasida bilim berishni, kasbiy faoliyat sohasida maslahatlardan tortib to yangi ijtimoiy hayotdagi rollarni, «Men» yo'nalishini korreksiya qilishni, o'z-o'ziga baho berish tizimini kuchayishini ta'minlaydi.

K.Levin shogirdlarining omadli faoliyatlari natijasida AQShda treningning milliy laboratoriyasiga asos solindi. Bu laboratoriyada ko'plab ko'nikmaviy treninglar yaratildi va shu tariqa pedagogik-psixologik treninglar jahon amaliyotida keng tarqaldi.

## **Pedagogik treningning maqsadi va vazifalari, pedagogik treningda yechiladigan muammolar**

Treningning asosiy maqsadi: shaxsni (ruhiy) ziqlikdan ozod qilish, bunda tabiiy erkinlikni his etishni, o'z guruhida va undan tashqarida o'zaro munosabat va aloqa o'mata olishdan iborat.

Demakki, trening-shaxsda mavjud bo'lgan yoki vujudga keladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish maqsadida bahs-munozara, o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan mashg'ulotlar yig'indisidir.

Shuni alohida qayd etish lozimki, trening jarayonida muammolarni yechish ham, bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish ham trenerdan o'ziga xosligi bilan ishlashni taqozo etadi. Shuning uchun pedagogikada bunday treninglar psixologik treninglar deb ataladi.

Hozirgi davrda odamlar orasida ruhiy ziqlik-zo'riqish hollari avvalgi paytlardagiga nisbatan ancha ko'p uchrayotganligi va buning natijasida ko'pgina hayotiy muammolar vujudga kelayotganligi ko'pchilikni, ayniqsa, keng jamoatchilikni, ota-onalar va pedagog, shuningdek, aynan psixolog mutaxassislarni ham tashvishga solayotganligi bejiz emas. Aytish mumkinki bunday holatlar turli darajadagi zo'riqishlar natijasida vujudga kelmoqda.

Ayni kunlarda asabiylashish holatlari ziqlik-zo'riqish kuzatilayotgan quyidagi kishilar guruhini alohida ta'kidlab o'tish joiz:

### **I. Bolalar orasida:**

1. Bog'cha bolalari orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;
2. Maktab o'quvchilari orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;
3. O'smirlar orasida kuzatiladigan asabiylik holatlari;

### **II. Kattalar orasida:**

1. Ish joylarida (rahbar yoki xodimlar orasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari;
2. Oilada (er-xotin, qaynona-kelin, ota-ona va farzandlar orasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari;
3. Keksalar orasida (psixologik o'zgarishlar natijasida) kuzatiladigan asabiylik holatlari.

Yuqorida sanab o'tilgan asabiylashishlardan kelib chiqadigan muammolar mavjud bo'lib, bu muammolarni yechish imkonini topa olmaslik natijasida pedagogik maslahat va pedagogik korreksiyaga muhtoj bo'lib qoladigan bir necha xil guruhlar vujudga keladiki, bular:



1. Muloqotchanlikning yetishmasligi muammosidan siqilgan kishilar guruhi.

2. Iqtisodiy yetishmovchilikdan siqilgan kishilar guruhi.

3. O'z yaqinlarini yo'qotib siqilgan kishilar guruhi.

4. Turli baxtsiz hodisalardan keyin qandaydir kasallik orttirib olgan kishilar guruhi.

5. Begona joyga ko'chib kelib, tub aholining bosimidan siqilgan kishilar guruhi.

6. Rahbarlar tomonidan yoki o'zidan kattalar tomonidan shaxsiyatiga tegilgan hollarda siqilishga duch kelgan kishilar guruhi.

7. Yangi o'qish yoki ish joyiga moslasha olmasdan siqilishga duch kelgan kishilar guruhi.

8. Chekish, ichish, narkotik moddalar iste'mol qilishdan qutula olmasdan siqilayotgan kishilar guruhi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni hal qilishda pedagogik trening deb ataluvchi o'yin va mashqlar seriyasidan iborat mashg'ulotlar yordam beradi.

Yuqoridagi guruhlar o'zi istab, o'z xohishi bilan treningga keladi va trenening ko'rsatmalariga amal qiladi. Lekin ba'zi guruhlar bo'ladiki, bu guruh a'zolari treningga istamasdan, xohlamasdan keladi. Masalan, jinoyatchilar, bezorilar, o'g'rilar, narkotik bilan shug'ullanuvchilar. Lekin guruh a'zolarining istagidan qat'iy nazar treningning vazifasi ularning muammolarini hal etishga qaratilgan bo'ladi.

***Har qanday pedagogik treninglar quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:***

1. Guruhni tashkil etish yoki yig'ish bosqichi.

2. Boshlang'ich bosqich.

3. Ishni olib borish bosqichi.

4. Yakunlash bosqichi.

Eng muhimi, guruhni tashkil qilish bosqichi bo'lib, bunda quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak:

- har qanday treningda (faqat nogironlar bilan o'tkaziladigan maxsus treninglarni hisobga olmaganda) tashqi jismoniy defektga ega bo'lgan va psixik holatida buzilishlar bo'lgan kishilar ishtirok etmasligi lozim. Negaki, bunday holatlarda aynan ana shunday kamchilikka ega

bo'lganlarda aks ta'sir bo'lishi ehtimoli kuchliroqligi har qanday mutaxassis uchun tushunarli bo'lsa kerak;

- guruh a'zolarining soni 8 tadan 12 tagacha (ba'zi hollardagina 20 tagacha) bo'lgani ma'qul;

- ishtirokchilarning yoshi iloji boricha taxminan teng bo'lishi, ya'ni ular orasidagi farq 4-5 yoshni tashkil etishi mumkin (Alohida qayd etish lozim, 45-50 yoshdan kattalar uchun trening juda katta ahamiyatli ta'sirga ega bo'lmasligi va ular kutganchalik natija bermasligi ham mumkin);

- ishtirokchilar orasida ayol va erkaklar soni imkoni boricha teng bo'lishi kerak;

Bundan tashqari yana quyidagilarga ham e'tibor berish lozim bo'ladi:

- treningda muammosi bir xil bo'lgan odamlarni to'plash kerak. Trening ishtirokchilari iloji boricha bir-biriga notanish bo'lishlari lozim;

- trening o'tkaziladigan xona albatta izolyatsiyalangan bo'lishi shart, ya'ni hech kim ularni bezovta qilishi mumkin emas va ular ham boshqalarga halaqit bermasligi kerak;

- rasmiylashgan guruh bo'lishiga yo'l qo'ymaslik lozim;

- trenerdan auditoriya erkin bo'lishini ta'minlash va auditoriyani yaxshi bilish talab etiladi.

### **Pedagogik treninglar quyidagi tamoyillarga asoslanadi:**

#### ***Faollik tamoyili.***

Bu tamoyil ko'proq eksperimental psixologiya asosida quyidagi g'oyaga bo'ysunadi: inson eshitganlarining 10% ini, ko'rganlarining 50% ini, aytib berganlarining 70% ini va nihoyat o'zi qilganlarining 90% ini o'zlashtiradi.

#### ***Ijodiylik tamoyili.***

Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundan iboratki, trening davomida ishtirokchilar guruhi psixologiyada aniq bo'lgan, kashf etib ulgurilgan g'oyalar, qonuniyatlarni topadilar, kashf qiladilar, eng asosiysi esa o'zlarining shaxsiy resurslarini, imkoniyat va sifatlarini anglab yetadilar.

#### ***Xulq-atvor ob'ektivlashishi (anglab yetilishi) tamoyili.***

Mashqlar davomida ishtirokchilar xulq-atvori impulsivlikdan ob'ektivlik darajasiga o'tadi va trening davomida o'zgarishlar kiritish imkonini beradi. Xulq-atvor ob'ektivligining universal vositasi sifatida

aks aloqa hisoblanadi. Guruhdagi aks aloqani yuzaga kelishini ta'minlash trenerning mas'uliyatidir.

### ***Sheriklik (Sub'ekt-sub'ektlik) muloqoti tamoyili.***

Sheriklik yoki sub'ekt-sub'ektlik muloqoti boshqalar manfaati, ular hissiyotlari, his-tuyg'ulari, qayg'ulari, boshqa insonning shaxsiy qadr-qimmatini deb tan olinadi. Ushbuning qo'llanilishi guruhda ishonch, ochiqlik iqlimini yaratadi.

Yuqoridagi tamoyillardan tashqari, treningning samarali bo'lishi ma'lum bir jihatdan trenerning o'ziga xos prinsiplariga ham bog'liqdir.

Trener har doim trening o'tkazishga kirishishdan avval o'ziga:

«Men qanday maqsadga erishmoqchiman?

Men nima uchun shu maqsadga erishmoqchiman?

Men qanday vositalar bilan unga erishmoqchiman?» kabi savollarini berishi lozim.

Bu savollarga javobni trenerga guruh bilan ishlash davomida diagnostik tadqiqotlar ochib beradi.

Trener ish rejasining mundarijasi, guruhning rivojlanish va inoqlik darajasi, munosabatlar xarakteri, guruhdagi har bir ishtirokchining holati, uning o'ziga va boshqalarga nisbatan munosabati, treningga nisbatan munosabati, trenerning o'zining munosabati kabilar diagnostika ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Topshiriqning amalga oshirilishida birinchi qadam metodik (qadam) qo'llanmaning to'g'ri tanlanishidir. Eng ko'p qo'llaniladigani, guruhiy diskussiyalar, rolli o'yinlar, psixodramma va uning modifikatsiyasi hisoblanadi.

***Metodik qo'llanmalarining tanlanishi quyidagi omillarga bog'liqdir:***

*Trening mundarijasi.*

*Guruhning o'ziga xosligi.*

*Holatlarning o'ziga xosligi.*

*Trenerning imkoniyatlari.*

### **Treningda pedagogik gimnastika**

Biz «pedagogik gimnastika» so'ziga e'tiborimizni qaratamiz. Bu tushuncha o'z ichiga ko'plab turdagi mashqlarni: yozma, og'zaki, verbal, noverbal mashqlarni oladi. Ular uncha katta bo'lmagan 2-3 kishidan iborat bo'lgan yoki barcha ishtirokchilar bilan olib boriladi.

1. Mashqlarning tanlanishi.

Mashqni tanlash davomida trener quyidagi holatlarni o'ylab ko'rishi lozim:

mashqning natijasida nima bo'lishini;

guruh holati bir butunligicha o'rganiladimi?

guruhdagi har bir ishtirokchining holati alohida o'rganiladimi?

eng ko'pi bilan bir kishining yoki 2-3 kishining holati o'rganiladimi?

kelajakda siljish uchun va rejada rivojlanish uchun material topiladimi?

Guruh qanday bosqichda turibdi: inoq, erkin, ishtirokchilar orasida o'zini yaxshi his etayaptimi?

Guruh tarkibi: ijtimoiy-demografik xarakteristikasi: (jinsi, yoshi va h.k.).

Kun vaqti: Kun boshida diqqatni jalb qiluvchi mashqlar; kunning ikkinchi yarmida esa charchoqni oluvchi mashqlar tavsiya etiladi.

Kelajakdagi ish mundariyasi va hokazo.

## **2. Yo'riqnomasi.**

Treningning samaradorligi doimo tushunarli qilib yetkazishga bog'liq bo'ladi. Yo'riqnomani tushuntirish mobaynida trener navbatma-navbat har bir ishtirokchiga qarshi va vizual kontakt o'rnatishi lozim.

## **3. To'xtatish va muhokama.**

Shunday mashqlar borki ular mantiqiy yakunga ega. Masalan, «Buzuq telefon». Ma'lumot eng oxirgi ishtirokchiga yetib kelishi bilananoq yakunlanadi. Mashqqa bo'lgan qiziqish eng yuqori darajaga ko'tarilib pastga tushish vaqtiga yetib kelishdan avval yakunlanishi lozim.

Muhokamada mashq nimaga yo'naltirilganiga qarab, savollar beriladi va trener tomonidan yakunlanadi.

Mashq davomida trener o'zi kuzatgan holatni ishtirokchilar duch kelgan qiyinchiliklar yoki ular erishgan yutuqlar haqida ham so'zlab berishi mumkin. Muhokama vaqtida ulardan samarali foydalanishi lozim.

## **Trening qonunlari**

### **1. Trening qonunlari nima uchun kerak?**

Trening boshlanishidan oldin qoidalari (qonunlar) nima uchun qabul qilinadi?

Trening-emotsiyaga boy, noan'anaviy mashg'ulot bo'lib, shaxsning muloqot usulini o'zgartirishga, uyg'unlashtirishga, shaxslararo munosabatlarni yaxshilashga, boshqa odamlar bilan muloqotda yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal etishga yo'naltirilgan.

Trening maqsadlari inson qarashlarining murakkab jarayonlariga, nozik tomonlariga ta'sir etishi mumkin, shuning uchun trenerning ishini qimmatbaho toshga ishlov berayotgan zargar mehnati bilan taqqoslash mumkin.

Trening qoidalari yoki qonunlari guruh ichidagi jarayonlarni nazorat qilish va tartibga keltirish uchun xizmat qiladi. Bu qonunlarni qo'llash trening qatnashchilari uchun yordam bo'ladi va aksincha, agar trener bularga e'tibor bermasa trening guruhi "bo'linib ketishi" yoki qatnashchilarni "yaralashi" mumkin.

Trenerning zargarlik mahorati guruhda intizomni (ayniqsa guruh maktab yoshidagi bolalar va o'smirlardan tashkil topgan bo'lsa) o'rnatishdan boshlanadi.

### **2. Trening qonunlarining maqsad va vazifalari**

1. Trening guruhini umumiy qonunlar asosida jipslashtirish.
2. Guruhiy trening o'tkazishning asosiy tashkiliy tartibini belgilab berish.
3. Qabul qilingan qonunlar asosida guruhni boshqarish imkoniyati.
4. Trening qonunlarining trening maqsadi va vazifalariga yo'nalganligi guruhning qo'yilgan maqsadga erishishiga yordam beradi.

**3. Trening jarayonida albatta o'tkazilishi kerak bo'lgan birinchi bosqich** - guruhiy me'yorlarni, ya'ni trening qonun qoidalarini ishlab chiqish bosqichidir. Bunda ishtirokchilar bilan bu me'yorlarga albatta rioya qilish kerakligi to'g'risida kelishish va har bir a'zoning roziligini olish kerak. Bu qoidalarga rioya etish treningning maqsadiga erishish va qulay psixologik iqlimning yaratilishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

### **Treningning asosiy qonunlari**

1. «00»Qonuni.
2. Mikrofon qonuni.
3. Faollik qonuni.
4. Faqat o'z fikrini bayon etish qonuni.
5. Guruhning barcha qatnashchilariga hayrixoh munosabatda, xushmuomala bo'lish qonuni.

6. O'z ismini aytish qonuni.
7. Muloyimlik qonuni.
8. Shu yerda va hozir qonuni. (hozirjavoblik).
9. Konfidensiallik qonuni.
10. Faqat o'zi ishtirok etishini taklif etish qonuni.
11. Seminarning boshidan oxirigacha qatnashish.
12. Ixtiyoriylik qonuni.
13. Vaqtni tejash-sarishtalik qonuni.
14. Shaxsni baholamaslik qonuni.

Har bir qonunning mohiyati, vazifalari va ahamiyatini batafsil ko'rib chiqamiz.

Trening jarayonida guruhda ishlarni tashkil qilishga doir me'yorlar (tamoyillar) quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. **"00" qonuni.** Barcha ishtirokchilar mashg'ulot boshlanishiga va tanaffusdan keyin kechikmay kelishlari, bunda trener ularga namuna bo'lishi kerak. Trening boshlovchisi faqatgina treningni boshqarmasdan guruh bilan birgalikda tahlil qiladi va o'zini tutishi va muloqoti bilan qatnashchilarga namuna bo'ladi.

2. **"Mikrofon" qonuni.** Kimning qo'lida mikrofon bo'lsa o'sha odam gapiradi. Mikrofon sifatida mashq o'tkazish vaqtida aylana bo'yicha har bir ishtirokchiga uzatiladigan biror bir yumshoq o'yinchoqdan, oddiy marker yoki ruchkadan foydalanish mumkin.

3. **"Faollik" qonuni.** Siz biror bir mashqni bajarishda ishtirok etmasligingiz mumkin. Bu, siz vazifani bajara olmaysiz degani emas, balki siz chetdan turib kuzatmoqchisiz. Bu haqida avvaldan ma'lum qilish kerak bo'ladi. Lekin guruhdan bir kishining chiqib ketishi shu guruhning ishiga ta'sir qilishini ham e'tiborga olish kerak bo'ladi.

4. **"Faqat o'z fikrini bayon etish" qonuni.** Bu qonun o'zining fikrini birinchi shaxs nomidan bayon etishi, ya'ni "Mening fikrimcha, men his qilaman, mening o'ylashimcha...". Har bir ishtirokchi guruhning boshqa qatnashchilarining fikrlarini bilmaydi. Guruh nomidan gapira olmaydi, shuning uchun ko'pchilik, ya'ni "biz" deb boshlanadigan fikrlar mumkin emas.

5. **"Guruhning barcha qatnashchilariga hayrixoh munosabatda, xushmuomala bo'lish" qonuni.** Ushbu qonun quyidagicha talqin qilinadi: "Barchamizning afzallik tomonlarimiz va kamchiliklarimiz bor. Trening vaqtida boshqalarning xususiyatlariga sabrli bo'lish kerak. Agar sizni nimadir qoniqtirmasa, hech bir

ishtirokchiga zarar yetkazmagan holda bu haqda trenerga ma'lum qiling". Bu qonun ayniqsa, o'smirlar guruhida muhimdir. Trening vaqtida bir-birini familiyasi va laqabi bilan atash mumkin emas.

6. **"O'z ismini aytish" qonuni.** Agar trening qatnashchilari bir-biriga notanish bo'lsa har bir chiqish oldidan o'z ismini aytishi kerak bo'ladi.

7. **"Muloyimlik" qonuni.** Barcha qatnashchilar bir-birlariga xushmuomalalik bilan va o'zlarini taqdim qilganda aytgan ismlari bilan murojaat qilishlari kerak bo'ladi.

8. **"Shu yerda va hozir" qonuni.** Ayni vaqtda va shu yerda bo'layotgan jarayonning, shuningdek, qatnashchilarning his-tuyg'ulari, kechinmalari va munosabatlarini trening doirasida ko'rib chiqish va ularni kelajak yoki o'tmish bilan bog'lamaslik kerak. Bu qoida guruhning har bir qatnashchisiga mazkur trening vaqtidagi kechinmalarni anglab yetish imkonini beradi.

9. **"Konfidensiallik" qonuni.** "Trening vaqtida sodir bo'ladigan barcha holatlar, vaziyatlar faqat shu yerda va faqat trening qatnashchilari bilan muhokama qilinadi va tashqariga chiqmaydi".

Bu qonun trening qatnashchilariga o'z fikrlarini erkin bayon etish imkonini beradi.

10. **"Ishtirokchi sifatida faqat o'zini taklif etish" qonuni.** Ko'p hollarda ba'zi ishtirokchilar biror bir mashqda ishtirok etishni xohlamasdan boshqa ishtirokchilarni taklif etadilar. Bu esa boshqalarga ham ta'sir ko'rsatib, treningning muvaffaqiyatli o'tishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun bu qonunni trening boshlanishidan avval tanishtirish kerak bo'ladi.

11. **"Seminarining boshidan oxirigacha qatnashish" qonuni.** Bu ishtirokchilarda mas'uliyatni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan tamoyildir.

12. **"Ixtiyoriylik" qonuni.** Seminarda o'z mulohazalarini bayon qilish, munozaralarda, o'yin va mashqlarda ishtirok etishda ixtiyoriylikni joriy qilishi mumkin.

13. **"Vaqtini tejash – sarishtalik" qonuni.** Guruh ishtirokchilari trening mashg'uloti davomida gaplarini imkon qadar qisqa, lo'nda ifodalashi, mavzu doirasidan chetga chiqib ketmasligi lozim.

14. **"Shaxsni baholamaslik" qonuni.** Har bir ishtirokchi o'z fikr-mulohazalarini, hissiyotlarini bayon qilishi mumkin, biroq bunda

boshlovchi va qolgan ishtirokchilar hikoyadagi vaziyatnigina muhokama qilishlari kerak va so'zlovchining o'sha paytdagi xulq-atvori, hatti-harakatini baholashdan qochishlari kerak. Masalan: "O'sha paytda siz jahlg berilmasligingiz yoki bunday demasligingiz kerak edi" va hokazo. Buning o'miga bunaqa vaziyatda men bunday qilardim yoki deyardim kabi variantlarda so'zlashish yoki fikrini bildirish so'raladi.

- Ishtirokchilar bir-birlariga do'stona munosabatda bo'lishi, bir-birlarining hissiyotlarini hurmat qilishlari kerak (Masalan: ketishi kerak bo'lib qolsa albatta boshlovchini ogohlantirishi va aksincha).

Bundan tashqari trener tomonidan quyidagilar alohida ta'kidlab o'tilishi shart:

- Birovning fikrini umuman noto'g'ri deb hisoblagan yoki unga qo'shilmagan taqdirda ham uni to'xtatib qo'yish yoki ustidan kulishga hech kimning haqqi yo'q.

- Ishtirokchilar bir-birini masharalashi yoki g'ururiga tegadigan gaplar aytishi mumkin emas.

- Ishtirokchilar ham, boshlovchi ham, agar savol uning shaxsiy hayotiga tegishli bo'lsa, javob bermaslik huquqiga ega.

- Boshlovchiga savollar va fikrlar anonim tarzda berilish imkoniyati yaratilishi shart. Lekin bu haddan tashqari chegaradan chiqish imkonini bermasligi, ya'ni boshlovchining shaxsiyatiga tegish kabilarga yo'l qo'yilmasligi ta'minlanishi kerak.

Me'yorlarni mashg'ulot o'tkazishdan avvalroq katta qog'ozga yozib, xonaga osib qo'yish yoki guruh a'zolari bilan birgalikda «Fikriy hujum» usuli orqali aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq.

Bu, birinchi guruhiy kelishuv hisoblanadi. Bunda shu narsa muhimki, har bir kishining fikrini albatta eshitish, nima uchun bu tamoyilga xayrixohligi yoki noroziligini izohlashini so'rash lozim. Tamoyillarni tasdiqlashni ovozga qo'yish kerak emas. Agar kimdir guruhning fikriga norozi bo'ladigan bo'lsa, uni ko'ndirishga harakat qilish yoki guruh boshqa qarorga kelishi lozim bo'ladi. Chunki uning fikrini inobatga olmaslik - guruhdagi psixologik iqlimga salbiy ta'sir etishi aniq. Ya'ni, fikri inobatga olinmagan ishtirokchida norozilik holati paydo bo'ladi va bu uning treningdagi butun ishtiroki davomida minus holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari unda ruhiy tushkunlik, o'z-o'zini baholashning pasayishi va hokazolar ham paydo bo'lish ehtimolini tug'diradi.



## **Trening qonunlari bo'yicha guruh ishlarini faollashtirish usullari.**

**Birinchi usul:** Trening qonunlarini o'qib bering va guruhga ularni qabul qilishni taklif eting.

Agar guruh avval treningda qatnashmagan bo'lsa, bu usul samara beradi. Avval qatnashchilarga treningning o'z qoida va qonunlari mavjudligi haqida tushuncha bering. Keyin har bir qoidani o'qib bering va bu qonunlar nima uchun kerakligini tushuntiring. Qatnashchilarga bu qonunlarni qabul qilishni taklif eting va bu qoidalarga rioya qilish kerakligi, ular har bir ishtirokchining manfaati uchun, guruh ishining samarasi uchun muhimligini ta'kidlash lozim.

**Ikkinchi usul:** Guruhga asosiy qoidalarni mustaqil ravishda ishlab chiqishni taklif eting. Masalan, Mikrofon qonunini yumoristik "So'z erkinligi" deb atash mumkin.


**Uchinchi usul:** Bu avval treningda ishtirok etganlar uchun bo'lib, bunda ishtirokchilarga trening qoidalari va qonunlarini o'zlarini ishlab chiqishlari taklif etiladi:

- har bir qoida barcha ishtirokchilar tomonidan qabul qilinishi va ma'qullanishi kerak;
- qoidalarga amal qilinish muddati 1 soat, 3 soat yoki trening kuniga bo'lishi mumkin;
- trener qoidalar qabul qilinayotganda har bir qatnashchi muhokamada ishtirok etishiga, o'z fikrini bayon etishiga e'tibor berishi kerak;
- guruhda trening qoidalarini taqdim etish usullari ko'p bo'lib, o'zingiz boshqa variantlarni o'ylab topishingiz va ularni qo'llashingiz mumkin;

- misol tariqasida trening qonunlari bo'yicha guruh ishini faollashtirishning bir necha usullarini keltiramiz:

1. Boshlovchi qatnashchilarga oldindan varaqlarga yozib tayyorlab qo'yilgan qoidalarni taklif etadi. Har bir ishtirokchi bittadan varaqni tortib uni o'qib beradi. Shundan so'ng bu qoida muhokama etiladi va trener bu qoida nima uchun kerakligi va nimani anglatishini tushuntirib beradi. Agar barcha ishtirokchilar bu qonunni ma'qullasha, u holda u trening Qonuni deb qabul qilinadi.

2. 5-6 yoshli bolalar bilan trening o'tkazilganda bu qoidalarni o'yin tariqasida taklif etish mumkin. O'yinimiz qiziqarli bo'lishi uchun 5 ta qoidani yodda saqlashimiz kerak:



- 1) o'yinni hamma birga boshlashi;
- 2) navbat bilan javob berish;
- 3) faol ishtirok etish, vazifalarni bajarish;
- 4) hammani ismi bilan atash;
- 5) bir-birini ustidan kulmaslik.

Boshlovchi jumlani boshlaydi, bolalar davom ettiradilar. Bunda kichkina ko'ptokchadan foydalanish mumkin, ya'ni ko'ptok biror bir ishtirokchiga uzatiladi va u qoidani aytishi kerak bo'ladi. Lekin ko'ptok bilan o'yin birinchi trening mashg'ulotida emas, balki keyingilarida qoidalarni takrorlash uchun qo'llaniladi.

### **Tashkiliy qism. Tashkiliy qismning asosiy jihatlari.**

Trener birinchi navbatda nima haqda o'ylashi lozim? Eng avvalo mavjud guruhning motivatsiyasi, guruhdagi har bir ishtirokchining motivlari haqida (ongli holdami yoki ong osti holatidami) bilishga harakat qilishi lozim.

Treningni birinchi kuni ishtirokchilarning joylashuvi bilan boshlanadi.

Trenerning o'zi stullarni doira shaklida qo'yishga kirishadi, guruh esa unga yordam beradi. Shu holatning o'zidayoq ishtirokchilar haqida dastlabki ma'lumotni olish mumkin: kimdir faol yordam beradi - stollarni chetga suradi, bir yo'la bir nechta stul ko'taradi, tez-tez harakat qiladi, kimdir boshqalarning harakatini shunchaki kuzatib turaveradi, ba'zilar o'zini go'yoki nimadir bilan banddek ko'rsatib turaveradi.

### **Treningni tashkil etishdagi muhim jihatlar**

Mashg'ulot o'tkaziladigan joy shinam, keng, erkin harakatlanishga mo'ljallangan, stullar bilan jihozlangan bo'lishi shart. Xonada ishtirokchilarning orasiga to'siq bo'ladigan ortiqcha jihozlar (ortiqcha stol, stullar) bo'lmasligi kerak.

Guruh a'zolari doira shaklida o'tiradilar. Doira shaklida o'tirishning afzalligi shundaki, hamma ishtirokchilar bir-birining borligini his qilishi va bir-birini ko'rib turishiga imkoniyat bo'ladi. Bu esa ishtirokchilarda ishonch, qiziqish, diqqat kabi xususiyatlarni vujudga keltiradi. Shuningdek, boshlovchi va ishtirokchilar orasida erkin muloqot qilish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, bolalar guruhi bilan ishlaganda ular qarshisida o'qituvchining bo'lmasligi o'smirlarda haqiqiy tenglikni his

etishga yordam beradi. Bu orqali guruh a'zolarining haqiqiy ijtimoiy tengligini ta'minlovchi psixologik muhit (iklim) yaratiladi.

Trening jarayonida guruh a'zolari soni 8-10 kishidan 15-20 ta gacha bo'lishi eng ma'qul variant hisoblanadi. Eng yaxshi guruh 12-15 kishidan iborat bo'lgan guruhdir. Ishtirokchilarning ko'payib ketishi o'zaro ishonch muhitining tarkib topishiga halaqit berishi mumkin. A'zolari kam bo'lgan alohida guruhlarda esa ishtirokchilar bir-birlarini tezroq tushunadilar va ahillashishlari oson kechadi. Agar ishtirokchilar soni 25 kishidan ortib ketsa dastur va mashqlar ishtirokchilarni bir necha guruhlariga bo'lgan holda o'tkaziladi, ammo bunda ko'p vaqt talab etiladi va ishtirokchilarning diqqati bo'linadi. Bu esa kutilgan natijaga erishishga halaqit beradi.

Har qanday trening trenerning qisqacha axborot berishi bilan boshlanadi. Bunda u treningning maqsadi, vazifalari, shuningdek, ishtirokchilar egallashi mumkin bo'lgan omillar haqida gapiradi. Ya'ni ishtirokchilarga trening haqida tushuncha, uning qanday tashkil qilinishi, o'tkazilishi va ishtirokchilar trening oxirida qanday natijalarga erishishi mumkinligi tushuntiriladi.

Keyingi bosqichda trener guruh a'zolari bilan mashg'ulot davomiyligini kelishib olishi kerak. Mashg'ulot davomiyligi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:

1. Haftasiga 4-5 kun 8 soatdan (orada 1 soat, 30 minut tanaffus beriladi). Bu eng samarali natija beradi. Haftasiga 2-3 kun har kuni 4-5 soatdan.

2. Haftasiga 1 kun 3-4 soatdan. Kamroq samara berishi kutiladi. Trener guruhning motivatsiyasini aniqlash uchun guruhga qabul qilinadigan har bir ishtirokchi bilan individual suhbat olib borishi lozim. Suhbatda asosan quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

- Treningdan nima kutyapsiz?

- Sizda, oilaviy (ota-onangiz, turmush o'rtog'ingiz, farzandingiz yoki boshqalar bilan) yoki ishda (rahbar yoki hamkasblaringiz bilan) muloqot borasida muammo bormi? Treningda ishtirok etishga sizni nima majbur qilyapti?

Bundan tashqari ishtirokchining individual psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida psixodiagnostik metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Individual suhbat oxirida trener iloji boricha bo'lajak ishtirokchining «Men haqimda nima deya olasiz?», «Test natijasi qanaqa chiqdi?» degan savollaridan qochishga harakat qilish lozim.

### **Tanishuv bosqichini tashkil qilish. «Kutishlar» bosqichi**

Treningni boshlashdan avval guruh a'zolarining bir-biriga murojaat etish usulini aniqlab olish lozim bo'ladi. Bunda trener 4 xil variantni taklif etadi: «Sen», «Siz», «Ism», «Familiya». Odatda, o'zbek mentalitetida ismini aytib murojaat etilishi kishilar orasida o'zaro yaqinlik hissini vujudga keltirishi sir emas. Garchi, ba'zi idoralarda ism-sharifi bilan murojaat etish rasman tan olingan bo'lsada, ism bilangina murojaat etish treningda ko'pchilik tomonidan tasdiqlansa, har qanday katta mansabda ishlaydigan ishtirokchini ham ismi bilan chaqirish talab etiladi.

Treningdagi «Tanishuv» bosqichini turli xil usulda tashkil etish mumkin, lekin mohiyat bitta bo'ladi, ya'ni bu bosqichning mohiyati quyidagicha: Har bir ishtirokchi o'zini bu yerda qanday nom bilan atashlarini istasa, shunday atashi mumkin. Shu o'rinda ular muloqot jarayonida o'ziga yordam beradigan va halaqit beradigan sifatlarini ham aytishi lozim. Yoki ular quyidagi savollarga javob tarzida ham o'zlarini tanishtirishlari mumkin: «Yaqinlaringiz sizni nima uchun qadrlashadi?», «Aynan qaysi jihatingiz o'zingizga ko'proq yoqadi?», «Boshqalardagi qanday hislatlarni qadrlaysiz?» va hokazo. Tanishuv bosqichida har bir ishtirokchi o'zidan oldingi ishtirokchining aytganlarini takrorlashi lozim.

Bu bosqichni ishtirokchilar shunchaki bir-birlarining ismini bilishi bilan bog'liq bo'lgan rasmiyatchilik deb qabul qilmaslik kerak. Ishtirokchilarning tanishuv bosqichi — ularning o'tkazilayotgan mashg'ulotga va ayni paytdagi muhitga moslashish jarayoni bo'lib, ulardagi hayajon va noqulaylik holatlarini bartaraf etishning eng yaxshi yo'lidir.

Mashg'ulot avvalida trener o'zini auditoriyaga tanishtirib, qaysi tashkilot, muassasadan ekanligini aytadi. Boshlovchi haqida ishtirokchilarda paydo bo'lgan ilk tasavvur keyingi ishlar natijasiga, trener va guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar xarakteriga va albatta, mashg'ulotning yakuniga, samaradorligiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Tanishuvda ishtirokchilar doira yoki boshqa shakllarda o'tirishlari mumkin.

Tanishuv bosqichi quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi: ishtirokchilar bir-birlarining ismini bilish bilan birga, har bir ishtirokchi o'zidagi hislatlar haqida o'ylab ko'rish va buni ovoz chiqarib aytish imkoniga ega bo'ladi. «Qor uyumi» o'yini orqali tashkil etilgan tanishuvda esa qo'shnisining aytganini takrorlash eshitishning, ayniqsa, o'zidan oldingi kishini eshitish qiyinligini his qilish imkonini beradi. Ko'pchilik ishtirokchilar o'zidan oldingi ishtirokchi nima deganligini eshitmaydi, chunki u eshitishdan ko'ra o'zi nima deyishi kerakligi haqida o'ylaydi. Muhokamada trener tomonidan ishtirokchi «Diqqat markazida» bo'lganida o'zini qanday his qilgani so'raladi.

Tanishuv bosqichini turli usullarda tashkil qilish mumkin. Umuman trening jarayonida ko'proq quyidagi uch xil usuldagi tanishuv bosqichlari farqlanadi.

**1. Intervyu usuli.** Bunda ishtirokchilar trener tomonidan juftliklarga bo'lib chiqiladi. Buning uchun ishtirokchilar mevalar, gullar, daraxtlar, hayvonlar, qushlar va hokazolarning qaysi birini yoqtirishiga qarab ajratiladi. Guruhga bo'linayotganda 1,2,3 deb raqamlar asosida guruhlariga bo'lish tavsiya etilmaydi. Juftliklarga bo'linganlaridan so'ng ular bir-birlaridan intervyu oladilar. Buning uchun savol-javoblar uchun ularga 10-15 min. vaqt beriladi. Shundan keyin har bir ishtirokchi o'zining sherigini guruh a'zolariga qisqa, lo'nda va iloji boricha batafsilroq tarzda tanishtirishi lozim bo'ladi.

**2. Video(audio)tasma usuli** — bunda trener tomonidan har bir ishtirokchi alohida jihozlangan xonaga chaqiriladi va u guruh a'zolariga o'zi haqida nimalarni aytib berishni istasa, shuni gapiradi. Barcha ishtirokchilar o'zi haqidagi ma'lumotlarni videotasmaga tushirib bo'lganlaridan so'ng, ularning hammasi xonaga taklif etiladi va tasma yozuvi qo'yib beriladi.

**3. Kartochkalar usuli** — har bir ishtirokchi trener tomonidan tarqatilgan maxsus kartochkaga o'zi to'g'risida nimani tanishtirishni istasa, o'shani yozadi. Kartochkalarni tablichkaga o'xshatib hamma o'z oldiga qo'yib qo'yishi, oldiga yoki orqasiga ilib olishi ham mumkin. Hamma bir-birining kartochkasini o'qib o'zaro tanishadi.

Ko'pincha treninglarda tanishuv jarayonida ishtirokchilardan ismini aytish bilan birga muloqotga kirishish jarayoniga salbiy va ijobiy ta'sir etuvchi jihatlarini ham aytib o'tish so'raladi.

Treningning kutishlar bosqichida guruh a'zolarining har biridan treningdan nimalar kutayotganliklari so'raladi. Trener ularning kutishlarini bilib, shunga qarab o'z ishini rejalashtiradi. Bunda guruh a'zolari aylana bo'ylab o'zlarining treningdan kutishlarini, xavotirlari va e'tirozlarini aytib chiqishlari so'raladi. Trener barcha ishtirokchilarning fikrlarini ularga baho bermasdan, muhokama qilmasdan, hayron bo'lmasdan, xayrixohlik bilan eshitishi lozim. Shundan so'nggina guruh, ishlash uchun tayyor hisoblanadi va mashg'ulotlarni boshlashlari mumkin bo'ladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda va turli mavzuga oid bo'lgan trening jarayonida quyidagi mashqlardan foydalanish mumkin.

### **Xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish**

#### **«Ta'qiqlangan meva».**

Maqsad: Oilada, o'zbek madaniy turmushida ta'qiqlangan xulq-atvor holatlari motivlarini aniqlash.

**Materiallar:** Quti, «mumkin emas» deb yozilgan ikkita tablichka.

**O'yinning borishi:** O'yin 25 minutgacha davom etadi.

1. Boshlovchi qutini xona o'rtasiga qo'yadi va uning ikki tomoniga «mumkin emas» degan yozuvlarni qo'yadi, ushbu yozuv hamma qatnashchilarga ko'rinib turishi kerak.

Quticha kun boshlanishidanoq xona o'rtasiga qo'yilgani ma'qul, natijada ishtirokchilarning qiziqishi ortadi, o'yinning asosiy qismiga o'tish osonlashadi. Boshlovchi o'yin boshlanishida ishtirokchilarning qiziqishlarini oshirishi mumkin («Ha, endi, bir qiziq narsa yashirilganda», «Keyin ko'rarsizlar», «Bir narsa bor-da» kabi so'zlar bilan), lekin qutiga qaramaslik haqidagi ta'qiq o'z kuchida turishi kerak. Ko'p hollarda ba'zi bolalar o'zlarini tiya olmay quti ichiga qarashga urinishadi va ta'qiqni buzishadi. So'ngra boshlovchi ushbu mashq bilan bog'liq bo'lgan asosiy qismga o'tadi va guruhga quyidagicha yo'riqnoma beradi:

«Xona o'rtasida kun boshidanoq chiroyli quti turibdi, uning xususiyati shundaki uning ichiga qarash mumkin emas. Bu qutiga nisbatan Sizda biron qiziqish uyg'ongan bo'lsa kerak. Kelinglar, kimning ichida nima kechayotganligini tahlil qilib ko'raylik. O'z kechinmalarigiz haqida aytib beringlar».

Tahlil.

1. Boshlovchi ishtirokchilardan ular nega o'zini shu xilda tutganligini so'raydi, ularning harakatlaridagi asosiy sababni aniqlashga harakat qiladi. Ta'qiq haqidagi qoidani buzish qanchalik qiyin bo'lganligi haqida so'raydi, o'zini tiyib turish oson yoki qiyin kechganligi haqida bilishga urinadi.

2. O'yin yakuni sifatida odamlar nega ta'qiqlangan xatti-harakatlarni sodir etishlari, oilaviy hayotga zid bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishlarining sabablari aniqlanadi. Ushbu yakuniy xulosalar kichik guruhlarda ham ishlab chiqilishi mumkin.

### «O'zimizni qanday tutamiz»

**Maqsad:** *Turli xulq harakatlarini ko'rib chiqish va ularning muloqotga tegshli harakatlarining shakllanishiga ta'sirini aniqlash.*

**Materiallar:** toza qog'oz, ruchka, qalam, 3 ta suratli plakat va ularga taalluqli hulq harakatlarining izohi.

**Materiallarni tayyorlash:** Har bir plakatning chap tomoniga u yoki bu hulq harakatini ko'rsatuvchi tasvir tushirilgan qog'oz yopishtiriladi. Rasmning yonida ushbu hulqning tavsiflari yozilgan.

#### **Sust (passiv) xulq:**

- O'z huquqlaringizni ta'kidlash uchun hech qanday xatti-harakat qo'llamayapsiz.

- O'zgalarni o'zingizdan yuqori qo'yyapsiz.

- Boshqalarning xohishiga yon beryapsiz.

- Sizni nimadir bezovta qilsa ham indamay turibsiz.

- Doimo uzr so'rayapsiz.

#### **Agressiv xulq:**

- Boshqalarni hech qancha o'ylamay o'z huquqlaringizni himoya qilyapsiz.

- O'zgalar ustidan hukmronlik qilishga urinyapsiz.

- O'zgalarni unutib, faqat o'zingizni o'ylaysiz.

- Boshqalar hisobiga o'z huquqlaringizga erishyapsiz.

#### **Ishonchli xulq.**

- O'zgalar huquqini poymol qilmay, o'z xuluqlaringizni himoya eta olasiz.

- O'zingizni va o'zgalarni hurmat qilasiz.

- Tinglashni va gapirishni bilasiz.

- Ham ijobiy, ham salbiy hissiyotlaringizni ayta olasiz.

- O'zingizga ishonasiz, lekin o'zgalarni «ayblamayapsiz».

**O'yinning borishi:** O'yin 20 minut davom etadi.

1. Kirish. Ko'pincha o'zimizga ishonmasligimiz bizni turli salbiy kuchlarga qarshi turolmashimizga olib keladi, natijada har xil nojo'ya vaziyat va xulqlarning ishtirokchisiga aylanib qolamiz. Turli salbiy yo'llarga kirib ketmaslik uchun biz o'z xulq-atvorimizni, uning ichki sabablarini yaxshi tushunishimiz, xatti-harakatlarimizni nazorat qilishimiz, hissiyotlarimizni boshqara olishimiz kerak.

2. Sinf uchta kichik guruhlariga bo'linadi.

3. Hap bir kichik guruhga quyidagicha topshiriq beriladi: ko'rsatilgan uchta suratga asoslangan holda har xil xulq formalarining xatti-harakatlari, ichki holatlari va nutq xususiyatlarini izohlab bering (guruhlar ishlayotgan paytda suratlarga taalluqli tavsiflar yopib qo'yiladi, suratlar esa ochiq qoladi).

4. Har bir guruh tomonidan taqdim etilgan variantlarni muhokama qilish.

So'ngra boshlovchi plakatdagi tavsiflarni o'qib izohlaydi. Boshlovchilar o'z xatti-harakatlari orqali har xil xulq modellarini misol tariqasida ko'rgazmali namoyon etishlari mumkin.

5. Ikkala boshlovchi ishtirokida agressiv va sust xulq ko'rinishlari tasvirlanadi. Ishtirokchilardan esa boshlovchilarning harakatlari, imo-ishora va so'zlarini kuzatgan holda ushbu xulq ko'rinishlarining nomlarini to'g'ri topishlari so'raladi.

**Birinchi vaziyat:** Agressiv holatdagi bir kishi ikkinchi - sust holatdagi va o'zi yaxshi tanimaydigan odamdan katta miqdordagi pulni qarz so'rayapti.

**Ikkinchi vaziyat:** Agressiv holatdagi bir kishi ikkinchi o'ziga ishongan va e'tiroz bildirayotgan odamni spirtli ichimlik ichishga undayapti.

6. Ishtirokchilar orasidan ko'ngilli bir kimsa chaqiriladi va unga guruhdan sir tutilgan holda u o'ynashi lozim bo'lgan rol va shu rolga taalluqli vaziyat aytiladi. Boshlovchi bu vaziyatda o'ziga ishongan odamning rolini o'ynasa, guruhning boshqa a'zosi ko'ngilli bo'lib agressiv xulqli kimsaning rolini o'ynaydi.

Shunisi ahamiyatliki, boshlovchi ishtirokchilar orasidan guruh liderlarini va guruh a'zolari yoqtirmaydigan bolalarni ajrata bilishi, tabiatan agressiv va sust xulqli ishtirokchilarni aniqlab olishi zarur. Bu hol ko'ngillilarni aniqlashda juda muhimdir - agressiv xulqli o'smirlarga



sust yoki o'ziga ishongan xulqli rollarni taqdim etish ma'qul bo'lsa, sust xulqli o'smirlar o'ziga ishonganlarning rolini o'ynashadi.

O'smir o'ziga berilgan rolni muvaffaqiyatli ijro etishi yoki ijro eta olmasligi unchalik muhim emas. Agar bu rolni yaxshi ijro eta olmasa o'zi yoki guruh buning sababini muhokama qilishlari mumkin, agarda rol yaxshi ijro etilsa guruh a'zolari ushbu xulq ko'rinishi qaysi biriga tegishli ekanligini darrov bilib olishadi.

7. Ishtirokchilar taqdim etilayotgan xulq ko'rinishlarini aniqlashadi, o'z taxminlarini izohlashadi.

### **«Halokatga uchragan kema»**

O'yin boshlanishidan oldin boshlovchi «Javobgarlikning o'zi nima? Siz buni qanday tushunasiz?» degan savolni o'rta tashlagani ma'qul.

Boshlovchi o'quvchilarning javoblarini flipchata yozar ekan, o'quvchilar tomonidan «javobgarlik» so'zining ma'nosini tushunishga harakat qilishlarini odilona baholashi va ushbu masala yuzasidan bildirilgan fikrlar kundalik turmush tarzimizda uchrab turishini ta'kidlab, so'ng javoblarni qo'shimcha yangi misollar bilan yanada boyitirishga harakat qilishi lozim.

Bu o'rinda boshlovchi «O'zbek tilining izohli lug'ati»da javobgarlik so'ziga qanday ta'rif berilganligini aytib o'tishi mumkin. Lekin lug'atdagi so'zning ma'nosi faqat bir tushuncha bilan kifoyalanib qolmaydi. Undagi «javobgarlik» tushunchasining izohidan tashqari o'z zimmasiga olingan «javobgarlik mas'uliyati», «javobgarlikni o'z zimmasiga olish», o'z bo'ynidan javobgarlikni soqit qilish, javobgarlikka tortish, javobgarlik kimgadir «tushyapti» kabi javobgarlikka taalluqli umumiy tushunchalar izohi bilan ham yaqindan tanishtirib o'tish kerak.

Lug'atda «javobgarlik» so'ziga, biror narsaga javob berish, bo'yin egish, kafil bo'lish, qarzni uzish kabi ma'nolar singdirilgan.

Alohida iqtidorli o'quvchilar uchun «javobgarlik» so'zining ma'nosi, uning kelib chiqishi (etimologiya) bilan yaqindan tanishtirib, o'zagi «javob»dan iborat «javobgarlik» so'zi o'zbek tilida qadimdan mavjud ekanligini, ba'zi tillarda shu jumladan, rus tilida «javobgarlik» so'zi XIX asr oxirida paydo bo'lganligining qayd etilishi, so'zning ahamiyatini va unga bo'lgan e'tiborini yanada oshiradi.

Suhbat mavzusiga nisbatan o'quvchilarning faolligini yanada oshirish maqsadida, so'zga tegishli izoh bermasdan avval, o'rtaga «Javobgarlik» so'zi qanday kelib chiqqan? U qanday paydo bo'lgan? Qani kim javob beradi?», - deb savol tashlash o'rinli.

«Javobgarlik» so'zi tushunchasi haqida to'la-to'kis ma'lumot berilganidan so'ng «o'z zimmasiga javobgarlik olish»ning ahamiyati qayd etiladi keyin boshlovchi tomonidan o'quvchilarga ushbu sifatni shakllantirish mashqini taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu mashqni bajarish uchun o'qituvchi tomonidan quyidagi yo'riqnoma beriladi: «O'zingizni Tinch okeanida yaxtada suzib ketayotgandek his qiling. Yong'in tufayli yaxtaning va yuklarning ko'p qismi nobud bo'ldi. Yaxta asta-sekin cho'ka boshlaydi. Zarur jihozlarning ishdan chiqqanligi sababli siz turgan joy noaniq. Yaqin quruqlikdan taxminan janubiy-g'arbiy yo'nalish bo'yicha 1000 km. masofada turibsiz. Bu holatdan qanday chiqish mumkin?

Quyida yong'indan so'ng butun qolgan va ziyon ko'rmagan 14 ta jihozning ro'yxati berilgan. Bunga qo'shimcha ravishda ixtiyoringizda eshkagi bor pufakli qayiqcha ham saqlanib qolgan. U ekipaj a'zolarini saqlash imkoniga ega. Shuningdek, bunday holatlarda juda zarur bo'lgan 4 ta narsa ham omon qolgan. Bular bir quti sigaret, bir necha quti gugurt va 5 ta qog'oz pul.

Har biringizga 15 minutdan vaqt beriladi. Shu vaqt ichida okeanda siz o'zingiz uchun hamda boshqalar uchun javobgarlik mas'uliyatini his etishingiz kerak. Pastda berilgan 14 ta jihozdan hayot uchun zarur bulgan 4 ta narsani aniqlash lozimki, bu jihozlar yordamida cho'kayotganlarni ham qutqarish mumkin bo'lsin. Bunday tanlash jarayonida eng muhim hisoblangan jihoz 1-o'ringa, keyingi muhim jihoz 2-o'ringa, undan keyingisi 3-o'ringa va hokazo qo'yiladi.

Bu usul yordamida mavjud barcha jihozlarning o'rni belgilanadi. Oqibatda, 14-o'rinni unchalik ahamiyatiga ega bo'lmagan jihoz egallaydi.

Endi quyidagi 14 ta jihozni o'z o'miga qo'yishingiz kerak bo'ladi. Bunda aslo siz o'zingiz va do'stlaringiz uchun javobgarlik vazifasini olayotganligingizni unutmasligingiz kerak». Shundan keyin ishtirokchilarga quyidagi jihozlar ro'yxati havola etiladi:

1. Kompas.
2. Soqol olish uchun ko'zgu.
3. 5 litrli suv idish.

4. Baliq tutadigan to'ra.
5. Tinch okeani xaritalari.
6. Havo to'ldirilgan yostiqlik.
7. 2 litrli neft va gaz aralashmasi idishi.
8. Kichik tranzistrlil radio.
9. Akulalarni qo'rqituvchi jihoz, rapellent.
10. Yomg'ir suvini yig'ish uchun katta yuzali timqora plastik (kleenka).
11. Bir necha 80 S li Puerto-riko romi.
12. Ikki quti shokolad.
13. 25 metr neylon yo'g'on arqon.
14. Bir yashik konserva.

O'quvchilar tomonidan tegishli jihozni ajratib olish jarayoni bajarilgach, bir qarorga kelib olishlari uchun sinfga yana vaqt beriladi. O'quvchilar berilgan vazifani alohida-alohida bajarib bo'lishganidan so'ng birgalikda hayot uchun yordam beradigan 4 ta asosiy jihozni tanlab olishlari kerak bo'ladi.

Ularning umumiy bir to'xtamga kelishi osonroq bo'lishi uchun o'quvchilarga quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- o'zini-shaxsiy fikrini himoya qilishdan ehtiyot bo'lish, ya'ni o'zini ustun qo'ymasdan, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan yagona qarorga ko'ra javobgarlikni olish;

- bu qiyin bo'lsa, umumiy qarorning ma'qul jihatlarinigina qisman qabul qilish;

- qaror qabul qilinishida yordam beradigan turli fikrlarni ko'rib chiqish.

Butun guruh yuqorida qayd etilganlarning eng muhimlarini tanlaganidan keyin, shaxsiy natijalarni guruh natijalari bilan solishtirish va tegishli jihozlarni tanlab olgan betaraf guruh fikri bilan qiyoslash foydadan holi bo'lmaydi.

Betaraf guruh tomonidan tanlab olingan jihozlar quyidagilardan iborat:

- 1) soqol olish uchun ko'zgu: U havo va dengiz qutqaruvchilari uchun signal berish vazifasini o'taydi;

- 2) gugurt yoki pul bilan yoqish mumkin bo'lgan neft va gaz qorishmasining ikki litrli idishi. Bu ham qutqaruvchilar e'tiborini tortadigan vositalardan biridir;

- 3) chanqoqni qondirish uchun besh litrli suv idishi;

#### 4) 1 yashik konserva.

«Kemaning halokatga uchrashi» mashgʻuloti tugaganidan keyin boshlovchi oʻz zimmasiga javobgarlik masʻuliyatini olish ogʻir paytlarda yuzaga kelmay, bu sifat har bir kishining oilaviy hayotida, kundalik turmush tarzining asosiy xususiyatlaridan biri boʻlishi lozimligini alohida qayd etadi.

#### “Men hech qachon .....maganman”

Ishtirokchilar navbatma-navbat «Men hech qachon .....maganman», degan jumladan iborat gap aytishlari lozim (masalan, «Men hech qachon parashyutdan sakramaganman», «Men hech qachon dengizda choʻmilmaganman», «Men hech qachon sigaret chekmaganman» va hokazo). Qolgan ishtirokchilar esa, aytilayotgan gaplar, agar ular uchun notoʻgʻri boʻlsa, barmoqlarini bukib boradilar. Yaʼni, masalan, biror ishtirokchi parashyutdan sakragan boʻlsa, bitta barmogʻini bukadi, keyingi ishtirokchi tomonidan aytilgan gap ham uning uchun notoʻgʻri boʻlsa (yaʼni u dengizda choʻmilgan boʻlsa) yana bitta barmogʻini bukadi va hokazo. 10 ta gap aytilganidan soʻng kimningdir barmoqlaridan birortasi yoki bir nechtasi bukilmasdan qolgan boʻlsa, oʻsha yutadi. Boshlovchi ishtirokchilarni oldindan aytilayotgan gaplar hayotiy boʻlishi lozimligi va barmoqlarni adolatli bukish lozimligi haqida ogohlantirishi kerak. Jins xususiyatlarini eʼtiborga olmasdan gap aytgan ishtirokchi yutqazadi. Bir xil hayot tarziga ega boʻlgan odam (bukilmagan barmoqlari qancha koʻp boʻlsa) yutadi, aksincha boy hayotiy tajribaga ega boʻlgan odam (barcha barmoqlari bukilgan) yutqizadi. Oʻyin shu tarzda barcha ishtirokchilar bittadan gap aytgunlaricha davom ettiriladi.

#### «Qadriyatlar»

**Maqsad:** *Shaxsiy qadriyatlar ierarxiyasi tuzilishi muhimligining ahamiyatlilik darajasini his qilish va anglash.*

**Shart-sharoitlar:** Mashq tinchlantiruvchi, bir maromdagi musiqa sadolari ostida bajarilishi zarur. Bunda matn oʻqiyotgan boshlovchi ovozing qanday ohangda ekanligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Oʻyinning borishi:**

Ishtirokchilarga oltita varaq tarqatilib, mana shu qogʻozlarga oʻz hayotlaridagi eng qadrlil narsalarni ahamiyatlilik darajasiga koʻra yozib chiqishlari soʻraladi. Keyin varaqlar shunday aralashtiriladiki, eng qadrlil

narsa yozilgan varaq oxirida turishi kerak. Boshlovchi ishtirokchilarga qandaydir hodisa ro'y berib, birinchi varaqda yozilgan qadriyatdan mahrum bo'lganliklarini his qilib ko'rishlarini taklif qiladi. So'ngra boshlovchi ishtirokchilardan shu qadriyat yozilgan qog'ozni g'ijimlab uloqtirishni va hayotni ana shu qadriyatsiz tasavvur qilib ko'rishlarini so'raydi.

Shu tariqa har bir qadriyatdan voz kechib boriladi. Shundan so'ng ishtirokchilarga qadriyatdan ajralayotgan vaqtda qanday hissiyot, qanday tuyg'uni his qilganligini eslash taklif etiladi. Keyin boshlovchi mo''jiza ro'y berib, qadriyatlarni birma-bir qaytarish imkoniyati tug'ilganligini e'lon qiladi va g'ijimlangan qog'ozlarni birma-bir qaytarib oladi. So'ng ishtirokchilardan qadriyatlarning yo'qotilgan paytdagi holati va g'ijimlangan qog'ozlarga yozilgan holatini solishtirib, yo'qotilgan paytdagi qadriyatlarni hozir ham xuddi shunday qadr-qimmatga egami yoki yo'qmi ekanligini so'raydi. Agar guruh a'zolari qadriyatlarni ahamiyatiga ko'ra o'rinlarini almashtirgan bo'lsa, buni ham bayon qilishlari kerak. Mashg'ulot so'ngida boshlovchi natijalarni muhokama qilib, xulosalarni bayon etadi.

Diqqat! Mashg'ulot jarayonida ishtirokchilar kuchli ruhiy kechinmalarni, zo'riqishlarni his qilishlari mumkin. Shuning uchun mashg'ulot ortiqcha shovqin-suronsiz o'tishiga, ortiqcha ovozlardan bo'lmasligiga, ishtirokchilarning bir-biriga halaqit bermasligiga va begona odamlarning xonaga kirmasligiga e'tibor berish lozim. Shu bilan birga boshlovchi ham ishtirokchilarga diqqat-e'tiborli bo'lishi zarur.

### «Mumkin emas...»

#### **O'yinning borishi:**

Guruh ikkiga bo'linadi. Birinchi guruh o'z istak-xohishlarini bayon qiladi, ikkinchi guruh esa bunga rad javobini berishi kerak. 10 minutdan keyin guruhlar o'z o'rinlarini almashadilar. O'yin taxminan quyidagicha boshlanishi mumkin:

- Men bugun-kechqurun diskotekaga bormoqchi edim.
- Yo'q, mumkin emas, kech bo'lib qoladi.

O'yindan so'ng xohishlarni rad qilish uchun qo'llanilgan dalillar, ularning sabablari va mazmuni tahlil qilib chiqiladi. Boshlovchi quyidagicha xulosa qilsa bo'ladi: «Asosli va asossiz rad etishlari bor. Ko'pincha sizga ba'zi taqiqlar asossizday tuyulishi mumkin, biroq ularda ham maqsad, mazmun borligini inkor eta olmaymiz. Agar biz istagimiz

nega rad etilayotganligini anglasak, tushunsak, bunga ko'nishimiz osonroq bo'ladi. Ba'zan o'zimiz qilayotgan xatti-harakatlarimiz, istagimiz noo'rin ekanligini ham anglab turamiz. Bunday holda tushunishimiz qiyin bo'lgan kechinmalarni his qilamiz».

### **Muloqot mavzusiga tegishli o'yinlar**

#### **«Buziq telefon» mashqi.**

**Maqsad:** Ma'lumot uzatishdagi buzilishlarni anglash.

Ma'lumotni anglangan holda idrok qilish va faol tinglash uslubini o'zlashtirish.

Yo'riqnoma: «Ushbu mashqimizda 6 kishi ishtirok etishi kerak. Bunda 5 kishi xonadan tashqarida poylab turadi, 1 kishi esa xonada qoladi. Men xonada qolgan odamga og'zaki topshiriq aytaman. Bu odam iloji boricha hamma topshiriqni eslab qoladi va ikkinchi (xonadan tashqarida turganlardan biriga) odamga aytadi. Ikkinchi odam uchinchisiga, uchinchi to'rtinchisiga va hokazo. Biz esa ma'lumotlar qanday uzatilishini kuzatib turamiz. Keyin esa xuddi shu jarayonni muhokama qilamiz».

5 ta o'quvchi xonadan chiqqanidan keyin boshlovchi qolgan 1 kishiga quyidagicha topshiriq aytadi: «Siz maktab direktorining muovinisiz. Direktorimiz Sobir Komilovich Sizni ancha kutdilar. Lekin, kelmaganingizdan so'ng, sizga men orqali topshiriq aytib ketdilar. U kishi hozir bizga Yaponiya apparaturasini olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishga ketdilar, u yerdan chiqib kengaytirilgan yig'ilishga borar ekanlar. Agar ular soat 12 gacha kelmasalar, o'qituvchilar majlisini o'zingiz o'tkazar ekansiz. Bu majlisda 8 «b» sinfning davomatini ko'rib chiqish kerak. Keyin soat 15.00 da maktabimizga Polshadan kelayotgan mehmonlarni kutib olish uchun aeroportga 1 ta «Neksiya» bilan 1 ta «Damas» avtomashinasini chiqarish kerak ekan. Yana aytdilarki, soat 17.00 da XTBning ijtimoiy ta'minot bo'limidan go'sht keltirisharkan. Hamma o'qituvchilarga 2 kilogrammdan go'sht tarqatib, direktorning ulushini xolodilnikka solib qo'ysangiz, o'zlari kelib olib ketar ekanlar».

Shundan so'ng ma'lumotlar birin-ketin kirib kelayotgan o'quvchilarga uzatila boshlaydi.

Mashq so'ngida odatda ma'lumotning buzilishi kuzatiladi. Mashqda ishtirok etgan o'quvchilar video yordamida ma'lumot

mazmunini bilib oladilar. Shundan so'ng o'quvchilarga har qanday ma'lumotni birinchi manbadan olish zaruriyati aytib o'tiladi. Ma'lumotlarning bir kishidan ikkinchi kishiga o'tishi natijasida u qanchalik o'zgarib ketishi paydo bo'ladigan mish-mish gaplarga asos bo'lishi uyushtiriladi.

Ma'lumot uzatishdagi xatolarni bartaraf etish maqsadida faol tinglashni o'rganish mashqi taklif etiladi. Bu mashq yo'riqnomasiga ko'ra hamma o'quvchilar uch kishilik guruhlarga bo'linadilar. Bu guruhdagi uch o'quvchi uch xil rolda ishtirok etadi: gapiruvchi, tinglovchi va nazoratchi.

Gapiruvchi hayotdagi biror bir voqeani aytib beradi va tinglovchi bu voqeani iloji boricha esida olib qolib, qaytadan takrorlab aytib berishi kerak. Nazoratchining vazifasi yo'l qo'yilgan xatolarni aytishdan iborat. Guruhdagi har bir ishtirokchi uchta roldan birortasida ishtirok etishi shart. Ushbu mashqni bajarish orqali ishtirokchilar verbalizatsiya, ya'ni faol tinglash metodini o'zlashtiradilar.

### **Shaxslararo munosabatlar va nizoli vaziyatlarni hal etish usullari**

**Maqsad:** Rolli o'yin orqali hamkorlik munosabatlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

Boshlovchi 10 ta o'quvchini xonaning o'rtasiga taklif etadi. Ular ikki qator bo'lib, bir-birlariga qarama-qarshi turishadi va ular oldiga yo'riqnomaga binoan vazifa qo'yiladi.

**Yo'riqnomasi:** «Tasavvur qiling, siz ikkita maktabning vakillarisiz. Yaqinda fizika fanidan ikki kunlik olimpiada bo'lishi kerak, lekin olimpiadaning qayerda bo'lishi hali aniq emas. Birinchi qator - A tomon - birinchi maktab vakillari, ikkinchi qator esa - V tomon - ikkinchi maktab vakillari. Olimpiada kimning maktabida o'tishi hozirgi sizning harakatingizga bog'liq. Har bir tomondagi o'quvchi iloji boricha qarshisidagi sherigini turli xil va'dalar, takliflar bilan o'z tomoniga og'dirib olishga harakat qilishi kerak. Lekin bu muloqot so'zsiz - imo-ishoralar yordamida o'tishi kerak. Qaysi tomonga o'tilsa, olimpiada shuning maktabida o'tadi. Buning uchun sizga ikki minut vaqt beriladi».

O'quvchilarning muloqoti tugagandan so'ng bajarilgan vazifa tahlil etiladi. Ishtirokchilar joylariga o'tirganlaridan keyin boshlovchi bo'lib o'tgan yechim variantlarini flipchatga yozadi. Ushbu muzokaradagi

munosabatlar quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. A-B. A tomon B tomonga o'tadi va B joyida qoladi. Munosabatlarning bu turi B nuqtai nazaridan qaraganda raqobat deb ataladi.

2. A-B. A tomon joyida qoladi, B tomon esa A tomoniga o'tadi. B nuqtai nazaridan qaraganda bu xil munosabat yon berish deb ataladi.

3. A-B. A ham B ham bir-birlarining tomoniga o'tishmaydi va o'z joylarida qolishadi, bu xil munosabat passivlik, ya'ni masalani hal etishdan qochish deyiladi.

4. A-B. To'rtinchi munosabat tipi kompromiss deb ataladi. Bizning misolimizda olimpiada uchinchi bir maktabda o'tkazilishi taklif etiladi.

5. A-B. Bu munosabat turi hamkorlik deb ataladi. Va bunda muammo ikkala tomonning manfaatlari hisobga olingan holda hal etiladi. Ya'ni olimpiadaning bir kuni bir maktabda, ikkinchi kuni esa ikkinchi maktabda o'tadi. Bu holda ikkala tomonning qiziqishlari qondiriladi. Va hech qaysi tomon o'zini kamsitilgan deb his etmaydi.

Bu mashq xulosasiga ko'ra, muloqotning hamkorlik uslubi eng samarali va konstruktiv bo'lib hisoblanadi.

Mashg'ulotning ikkinchi yarmi nizoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilardan biron-bir nizoli, muammoli vaziyatni aytish so'raladi. Ushbu nizoli vaziyatning turli yechimlari o'quvchilardan so'raladi va har bir taklif etilayotgan variant biron munosabat turiga taalluqli deb topiladi. Odatda, muammoli vaziyat yechimlaridan hamkorlikka taalluqli bo'lgan variant nizoni hal etishdagi konstruktiv yo'l bo'lib hisoblanadi. Bir necha nizoli vaziyatlarni tahlil etish orqali o'quvchilardan ushbu xulosa mustahkamlanadi.

#### «Avtobusda»

**Maqsad:** O'quvchilarda muomala madaniyatini shakllantirish, shaxslararo munosabatlarni ijobiy rivojlantirish.

Ishtirokchilardan biri avtobusdagi bezori rolini o'ynaydi, qolganlar esa yo'lovchilar. Bezori avtobusdagi ikkita o'rindiqni egallab olib, birida o'zi o'tiribdi, biriga esa magnitofonini qo'yib olgan. U hech kinga joy bermoqchi emas. Yo'lovchilardan har biri bezori bilan til topishib uning yoniga o'tirishga harakat qilib ko'rishi kerak. Shart shuki - maqsadga janjalsiz erishish lozim.



### **«Avlodlar o'rtasidagi nizo»**

**Maqsad:** O'quvchilarda muomala madaniyatini shakllantirish, shaxslararo munosabatlarni ijobiy rivojlantirish.

Bunda uch kishi ishtirok etadi - yigit, qiz va katta yoshli odam. Avlodlar o'rtasida «Eh, hozirgi yoshlar...» qabilida taqlid uyushtiriladi. Yigit va qizning vazifasi: imkon boricha xushmuomalalik bilan nizodan qochish. Hay'at a'zolari har bir o'quvchining harakatini baholab boradi.

### **«Orqadagi yozuvlar»**

Ishtirokchilarning orqalariga varaq mahkamlab qo'yiladi. Hamma ishtirokchilar xonada xohlagan odamining oldiga borib, uning orqasidagi qog'ozga bu odamning nimasi o'ziga yoqishini yozishi kerak. Vazifani mukammallashtirish ham mumkin. Masalan, o'sha odamda nimani o'zgartirishni xohlashini yozishi mumkin.

### **Informatsiyani (ma'lumotni) so'zsiz uzatish**

Bu o'yinda boshlovchi yo'naltirib turuvchi rolini bajaradi. Boshlovchi shunday tushuntirish beradi: «Hozir bir kishi xonadan tashqariga chiqib turadi, qolganlar esa unga qanaqa ma'lumotni aytish lozimligi haqida kelishib olishadi. Men uni chaqiraman, shunda butun guruh imo-ishora, turli qiliqlar va yuz harakatlari bilan unga shu informatsiyani uzatishga harakat qilishadi. Chaqirilgan odamning vazifasi - guruh unga aytmqchi bo'layotgan ma'lumotni anglab olishdan iborat».

**Boshlovchiga eslatma:** odatda o'smirlar o'yin muhitidan nojo'ya xatti-harakatlarni bajarish uchun bahona sifatida foydalanishlari mumkin. Albatta, bu o'yinda nojo'ya harakatlar bo'lishi tabiiy, lekin kimki vaziyatdan sho'xlik va hazil-huzul uchun foydalanmoqchi bo'lsa, uni o'ynayotgan guruhning o'zi tartibga keltirib qo'yishi kerak. Bu usulning muhim ta'sir kuchiga egaligini hisobga olib, uni jamoatchilikdan holi va shovqin kam bo'lgan maxsus xonalarda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

### **Ikki qo'llab ko'rishish**

Ishtirokchilarning hammasi doira shaklida o'tirishadi. Qo'llar bir-biriga birlashtirilgan bo'ladi. Ishtirokchilar birvarakayiga xohlagan tomonidagi (chap yoki o'ng yonidagi) kishiga salomlashish uchun qo'shqo'llab qo'l uzatadi. Unisi esa qo'llarini yonidagisiga uzatishi mumkin va birinchi ishtirokchiga navbat yetgunicha shu holda davom

etadi. Shunday qilib bir nechta mos kelmaslik holati kuzatilishi tabiiy. Ana shunda qanaqangi qiy-chuv ko'tarilishini ko'rasiz!

Bu o'yinni bir necha bor takrorlash nafas rostdash va tinchlanish uchun foydalidir.

### **Aziz mehmon o'yini**

**Maqsad:** a) shaxsning va xususan, protogonist (mehmon) shaxsining guruh tomonidan hurmat qilinishini tasdiqlash; b) guruhda odam bilan muomala qilish san'atini shakllantirish; v) bevosita (o'yinni amalga oshirish orqali) guruhdagi ayrim ishtirokchilarning protogonistga nisbatan salbiy munosabatini shakllantirish.

Bu o'yinda protogonist sifatida guruhdagi eng ko'zga tashlanmaydigan, sust o'smir tanlanadi.

Boshlovchi o'yinning mohiyatini quyidagicha tushuntiradi: «Hozir bir kishi tashqariga chiqib, to uni chaqirmagunimizcha eshik orqasida kutib turadi. Qolganlardan 7 kishini biz har bir o'yin qatnashchilarining ishtirokini va xulq-atvorini baholash uchun (5 balli sistemada) hakam sifatida saylaymiz. Vazifangiz nimadan iboratligini bilib oling: eshik ortidagi kishi - bizning eng aziz mehmonimiz. Tasavvur qiling, u bizning respublikamiz uchun do'st mamlakat bo'lgan AQSh davlatining vakili bulib, O'zbekiston va Amerika o'rtasida mustahkam aloqalarni yo'lga qo'yish uchun tashrif buyurgan. Ishtirokchilardan biri mehmonni chaqiradi, shu bilan birga unga hamrohlik va tarjimonlik ham qiladi. Qolgan ishtirokchilarning har biri mehmon bilan ko'rishishga, undan nimanidir so'rashga, unga nimalarnidir gapirib berishga harakat qilishi kerak, chunki mehmon zerikib qolmasligi kerak. Hakamlarning vazifasi: qatnashchilarning ishtirokini kuzatib borib, kimda-kim mehmon bilan quruq, betakalluf, soxta, xushomadgo'ylarcha va odobsizlarcha munosabatda bo'lsa, ularning ballarini tushirishdan iborat. Odobsizlar va ballari past bo'lganlar o'yindan chiqariladi. Hakamlar har bir ishtirokchining o'rtacha bahosiga qarab, uning o'zaro munosabatga kirishish qobiliyatiga baho beradilar».

Boshlovchi ham ishtirokchilar bilan birgalikda hakamlar hay'ati a'zolarini, hamrohlik qiluvchi (tarjimon)ni va «mehmon»ni tanlaydi. Hamrohlik qiluvchi xonadan chiqib ketadi va bir ozdan so'ng «mehmon»ni boshlab kiradi. Ishtirokchilar protogonistni doira shaklida o'rab oladilar va uning atrofida kim qanday istasa shundayligicha

o'tiradilar. U bilan gaplashishning navbatma-navbatligi shart emas, muhimi har bir ishtirokchi u bilan munosabatga kirishishi kerak.

Oldindan ma'lum bo'lgan kulguli narsalar (mehmon bilan «chet tilida gaplashish» va muloqotning odatlanilmagan usuli) o'yinga zavq bag'ishlaydi, kulgu uyg'otadi, lekin ta'kidlangan jiddiylik yo'qolmaydi. Tajribalarda ma'lum bo'lishicha, protogonist bilan muloqotda bo'luvchi shaxslar o'z munosabatlarida xazilomuz, kulguli harakatlarni ham qo'llaydilar. Bunda ishtirokchilar, hatto hakamlar tomonidan ballar kamaytirilishi ehtimolini ham unutilib qo'yadilar. Shunday vaziyat kuzatilganda, o'yin nihoyasida boshlovchi ishtirokchilarning bu xil (noo'rin) harakatlarini yengilgina bo'lsa ham ta'kidlab o'tishi kerak.

Mehmon nomiga aytilayotgan olqishlar haqida oldindan bosh qotirib o'tirish shart emas, balki ishtirokchilar buni o'yin jarayonida o'ylab topishlariga imkoniyat yaratish kerak.

### «Avtobus» o'yini

**Maqsad:** muloqot mazmunini shaxsning noverbal harakatlaridan anglash imkoniyati haqidagi tushunchalarni shakllantirish. Noverbal komponentlar: imo-ishora, mimika va hissiy holatlarni o'qiy olish qobiliyatlarini aniqlash.

Boshlovchi ishtirokchilarga insonning muloqot jarayoni qanchalik boy ekanligi, u faqatgina og'zaki muloqotdan iborat bo'lmay, balki so'zlar yordamisiz uzatiladigan ma'lumotlarga ham boy ekanligi haqida aytib o'tadi. So'zlar yordamisiz uzatiladigan ma'lumotlar muloqotdagi noverbal komponent deyiladi. Bu xil komponentlarni: imo-ishoralar, mimika (yuz ifodasi) va ixtiyorsiz tana harakatlarini muloqotga kirishayotgan har qanday odamda kuzatish mumkin. Bu xil komponentlarni zehn bilan kuzatish va tushunish natijasida ko'pincha suhbatdoshimiz ayta olmaydigan mayl, istaklari haqida ma'lumot olishimiz mumkin. Bu xil harakatlarni kuzata olish qobiliyati inson ichki olamida yuzaga kelayotgan noroziliklarni oldindan sezish, suhbatdoshini «yarimta» gapidan tushuna olish imkoniyatini beradi. Natijada, muloqot jarayonida bu xil omillarni hisobga olish bu jarayonni ancha yengillashtiradi va o'zaro tushunish hissini keltirib chiqaradi.

O'quvchilarda bu xil bilimlarni mustahkamlash uchun quyidagi mashq taklif etiladi. O'quvchilar ikki qator bo'lib bir-birlariga qarama-qarshi holda yuzma-yuz turadilar. Har bir o'quvchi qarshisidagi sherigi bilan mashqni bajaradi.

**Yo'riqnoma:** Tasavvur qiling, sizlar qarama-qarshi tomonlarga harakatnayotgan avtobusda ketayapsizlar. Avtobus oynasidan boshqa avtobusda ketayotgan tanishingizni ko'rib qoldingiz. Birinchi guruhdagilar sizlarning o'sha tanishingizga biron zarur, muhim gapingiz bor. Imo-ishora orqali unga o'z fikringizni tushuntirishingiz kerak. Ikkinchi guruhdagilar, sizlar o'z suhbatdoshingizni imo-ishorasidan nima demoqchi ekanligini tushunib olishingiz kerak.

O'quvchilar mashqni bajarib bo'lganlaridan so'ng, boshlovchi har bir guruh ishtirokchilariga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: «Sheringiz bermoqchi bo'lgan ma'lumotdan nimani tushundingiz? Ikkinchi guruxdagilarga esa «Siz aslida nima demoqchi edingiz?», deb so'raladi. Natijalar solishtirib chiqiladi va noverbal imo-ishora va xatti-harakatlar individual xususiyatga ega bo'lishi bilan birga umumiy tomonlarga ham egaligi ta'kidlab o'tiladi. Muloqot davomida bu jarayon ishtirokchilarning nafaqat so'zlari, balki xatti-harakatlari, yuz ifodasi, tovushidagi intonatsiyalarni o'qiy olish zarurligi haqida xulosa chiqariladi.

## **TANISHUV O'YINLARI**

### **«Qop yig'imi»**

Boshlovchi ko'rsatmasiga binoan uning o'ng yoki chap tomonida turgan ishtirokchilardan bittasi o'z ismini aytadi. Ikkinchisi esa birinchi ishtirokchining va o'zining ismini aytadi. Uchinchi ishtirokchi esa birinchi, ikkinchi ishtirokchining va o'zining ismini aytadi. Shu tariqa oxirigacha davom etadi. Oxirgi ishtirokchi birinchi ishtirokchidan boshlab to guruh a'zolarining hammasini va o'zining ismini aytadi. Guruh a'zolarining bir-biri bilan tanishishi ana shu tarzda amalga oshadi.

Ikkinchi turda har bir ishtirokchi o'ziga taxallus (gul, meva, badiiy qahramon, planetalar nomi kabi) o'ylab topib, keyin o'sha taxallus bo'yicha o'zini tanishtiradi. Bu mashq ham shaxslararo chiniqish, xotirani mustahkamlash, emotsional tanglikning oldini olish maqsadida xizmat qilishi mumkin.

### «Olma»

Qatnashuvchilar davra qurib o'tiradilar. Boshlovchi «Mening ismim... Men ...ni yaxshi ko'raman (xohlagan narsa yoki kishini aytishi mumkin)», - deydi va olma (koptok)ni biron kishiga qarab otadi. Olma (koptok)ni ilib olgan ishtirokchi ham o'z navbatida o'zini shunday tanishtiradi va koptokni boshqa ishtirokchiga uzatadi. O'yin barcha ishtirokchilar o'zlarini tanishtirib bo'lgunlariga qadar davom etadi.

Ishtirokchilar tanishtirish jarayonida aytilishi mumkin bo'lgan jumlarlar:

Men ... yaxshi ko'raman (kishini ismi ham bo'lishi mumkin).

Bolaligimda yaxshi ko'rgan ovqatim ... (kasha) edi.

Men yoqtiradigan rang (gul yoki meva) - ...

### «Ismlar-fazilatlar»

Bu o'yin guruh ishtirokchilarining kayfiyatini ko'tarish, ishtirokchilar o'zlarini erkin his qilishlari uchun tashkil qilinadi.

Har bir ishtirokchi biron-bir ismning birinchi harfi bilan boshlanadigan shaxsning ijobiy xarakter xususiyati, kishi fazilati nomini aytish lozim (Masalan, Rashid - rostgo'ylik, Murod — mardlik va hokazo).

### «Juftlik asosida tanishuv»

Ishtirokchilar juft-juft bo'lib 10 minut davomida bir-birlariga o'zlari haqida ma'lumot beradilar. Keyin ulardan biri ishtirokchilar bir-birlarini tanishtirgunlariga qadar davom etadi.

## AHILLASHTIRUVCHI O'YINLAR

### «Botqoqlik»

Buning uchun kartondan yasalgan o'rtacha kattalikda «likopchalar» kerak bo'ladi. Ularning soni 9 ta bo'lishi kerak. Guruh a'zolari qator bo'lib, birin-ketin «tarelka»larga oyoq qo'yib, botqoqlikdan o'ta boshlaydilar, atrofda esa (ikkinchi guruh a'zolari) qaroqchi «timsoh»lar yuradi. «Timsoh»lar «tarelka»larni olib qo'yishga shay turadila. Maqsad har bir guruh a'zosi «tarelka»lardan oyoq uzmasligi, hech bo'lmaganda bir oyoqning uchi bilan ularni bosib turishi kerak. Agar guruh a'zolari ittifoq bo'lib harakat qilsalar, mag'lubiyatsiz botqoqlikdan o'tadilar, bironta «tarelka»ni «timsoh»ga bermaydilar.

### «Avtobus»

Ishtirokchilar ikki guruhga bo'linadilar. Boshlovchi ular ikkita avtobusda joylashishlari kerakligini aytadi. Avtobus o'rindiqlari sifatida stullardan foydalanish mumkin. Ishtirokchilar stullarga bir-birlariga qarama-qarshi joylashib o'tiradilar. Hamma ikki avtobusga joylashib bo'lgach, boshlovchi birinchi avtobus yurmasligini, u buzilib qolganligini ma'lum qilib, hamma ikkinchi avtobusga o'tishi kerakligini aytadi. Bu o'yin ishtirokchilar orasida bir-biriga ishonchni rivojlantirishga yordam beradi.

### «Toping-chi, bu kim?»

Buning uchun har bir ishtirokchi shu guruh a'zolaridan kimningdir 10 tadan kam bo'lmagan xarakter xususiyatlarini qog'ozga yozadi. Lekin kim haqda yozganligini, hatto o'g'il yoki qiz bolaligini ham hech kimga aytmaydi. Qolgan ishtirokchilar yozilgan xarakter xususiyatlariga qarab gap kim haqda ketayotganligini topishlari lozim. Agar guruh gap kim haqida ketayotganligini qanchalik tez topsa, uni ta'riflagan ishtirokchi mohir odam sifatida rag'batlantiriladi.

### «Orqama-orqa»

Ishtirokchilar xona bo'ylab harakat qiladilar. Boshlovchi tana a'zolaridan birining nomini aytadi, masalan, «orqa» deydi. Shunda ishtirokchilar o'zlariga juft topib, bir-biriga suyanishlari kerak. O'ziga sherik topa olmagan ishtirokchi esa o'rta qayiq chiqadi va o'yinni davom ettirish uchun boshqa tana a'zolarining nomini aytadi (masalan: qo'l, oyoq, bosh barmoqlar, yelka va hokazo).

### «G'aram», «tepalik», «so'qmoq»

Ishtirokchilar 6-10 kishilik guruhga bo'linadilar. Har bir guruh a'zolari bir-birlarining qo'llaridan ushlab, davra quradilar. O'yin ishtirokchilarining o'ng tomonga qarab aylanishi bilan boshlanadi. Boshlovchi tomonidan «So'qmoq» deyilganda ishtirokchilar bir qator bo'lib o'tirib olishlari kerak. «G'aram» deyilganda har bir guruh 2 kichik guruhga bo'linadi va bir-biriga yuzma-yuz bo'lib, qo'llarini birlashtirib yuqoriga ko'taradilar. «Tepalik» deyilganda esa, ishtirokchilar yana bir qator bo'ladilar, biroq bunda guruhdagi bir ishtirokchi tursa, ikkinchisi

o'tirib oladi, natijada tepaliklar ko'rinishini aks ettiradilar. Vazifani boshqalardan oldin va yaxshi bajargan guruhga 1 ball beriladi. Shunday qilib, eng ko'p ball jamg'argan g'olib, deb topiladi.

### «Qaerga, qaerga?»

Guruh a'zolarining har biri raqam bilan nomlanadi. Ishtirokchilar o'z raqamlarini eslab qolishlari kerak. Shundan so'ng ular aralashib ketishadi. Boshlovchi o'rtada turib ikkita sonni aytadi. Shu raqamlar bilan nomlangan ishtirokchilar «qaerga, qaerga?» deb bir-birlarining o'rinlariga o'tib olishlari zarur. Boshlovchi ham bu orada ochiq qolgan joyni egallashga urinadi. Joysiz qolgan ishtirokchi o'yinni davom ettiradi.

### «Qayta tuzilish»

Ishtirokchilar 2 guruhga bo'linadilar va boshlovchi ishorasi bilan turli belgilarga ko'ra tezroq safga tizilishga harakat qiladilar (masalan, oyoq kiyimining o'lchami, tug'ilgan kuni va hakazolar hisobiga olinishi mumkin).

### «Ishonch parovozi»

Barcha ishtirokchilar bir qatorga tizilishadi. Birinchi ishtirokchidan tashqari, guruh a'zolarining hammasi ko'zlarini yumishadi va bir-birlarining belidan ushlab olishadi. Birinchi ishtirokchining vazifasi — «parovoz»ni xona bo'ylab to'siqlar (yo'llar) orasidan olib yurish, qolganlar esa oldindagi ishtirokchining harakatlariga mos ravishda to'siqlar orasidan urinmay-surinmay o'tishlari darkor.

### «Yomg'ir»

Ishtirokchilar aylana ko'rinishida turib olishadi. Bunda jimlik hukm surishi kerak. Boshlovchi: «Hozir siz yomg'ir tovushini eshitasiz, lekin buning uchun mening harakatlarimni takrorlashingiz kerak», deydi o'rtadagi boshlovchi har bir ishtirokchining oldiga keladi va uning ko'ziga qarab, muayyan harakatlarni bajarib ko'rsatadi. Har bir ishtirokchi toki boshlovchi butun davrani aylanib kelib boshqa harakatni ko'rsatmagunicha shu harakatni bajarib turishi zarur.

#### **Harakatlar:**

- kaftlarni bir-biriga ishqalash;
- barmoqlarni qirsillatish;

- tizzalarni shapatilash;
- tizzalarni shapatilab, oyoqlarni do'pillatish;
- tizzalarni shapatilash;
- barmoqlarni qirsillatish.

### «Ko'rinmas sovg'a»

Ishtirokchilar davra qurib olishadi. Boshlovchi qo'lida narsani yasash mumkin bo'lgan ko'rinmas loy borligini va ishtirokchilar undan sovg'a yasab, o'ng tomonidagi ishtirokchiga uzatishlari lozimligini aytadi. Sovg'a yasaladi va qabul qilib olingach yana boshqatdan sovg'a yasalib, navbatdagi ishtirokchiga taqdim etiladi. Shu tariqa barcha «sovg'a» olmaganicha bu harakatlar takrorlanadi. O'yin oxirida kimning nima sovg'a qilgani va sababi so'raladi.

### «Yashirin lider»

Guruh a'zolaridan biri xonadan chiqib turadi. Qolganlardan birini — «lider»ni tanlashadi. Qolgan ishtirokchilarning vazifasi: lider muayyan harakatlarni bajarganda ular ham bu harakatlarni takrorlashi kerak. Xonadan chiqarib yuborilgan ishtirokchini xonaga taklif qiladilar, uning vazifasi: «lider» kimligini aniqlashi kerak. Agar to'g'ri topsa, lider bilan o'rin almashadi.

### “Sakrash”

Guruh ishtirokchilari yuzlarini bir tomonga o'g'irgan holda bir qator turadilar.

Yo'riqnoma: Men «bir, ikki, uch», deb sanayman va har «uch» deganimda siz quyidagicha holatlarda sakrashingiz mumkin:

Joyingizda turgan holda.

Sakrab o'ng tomonga o'girilish.

Sakrab chap tomonga o'girilish.

Topshiriqni bir-birimiz bilan gaplashmasdan, jimlikda bajaramiz. Mashq hamma ishtirokchilar bir tomonga qarab turmagunlaricha davom etaveradi. Mashqni bajarishda o'zaro ko'rsatmalar berilmasligiga, ayrim ishtirokchilarning kelishib olmasliklariga va bir ishtirokchining buyrug'i bilan biror tomonni tanlamaslikka e'tibor berish kerak.

Mashq guruhni jipslashtiradi, kayfiyatni ko'taradi, qizg'inlikni, tanglikni yumshatadi. Shuningdek, guruh qatnashchilarining birgalikdagi



faoliyatda kelishib olishlariga va umumiy qarorga kelishlariga imkon beradi.

O'yin oxirida guruhga beriladigan savollar: «Guruhning oldiga qo'ygan vazifani bajarishda nima yordam berdi?», «Vazifani tezroq bajarishga nima xalaqit berdi?», «Vazifani tezroq bajarishga nimalar yordam berishi mumkin edi?» va hokazo.

### **Barmoq tashlash**

Guruhning hamma ishtirokchilari doira shaklida o'tiradilar.

Yo'riqnoma: «Hozir hammamiz birgalikda quyidagi topshiriqni hal etishimizga to'g'ri keladi. Men «bir, ikki, uch», - deb sanayman va hamma tezklik bilan, bir vaqtning o'zida bir-biri bilan kelishmasdan, gaplashmasdan, qo'ldagi panjalarni xohlagan miqdorda tashlaydi». Mashq hamma bir xilda barmoq tashlamaguncha davom etaveradi. Davraning hamma ishtirokchilari bir xildagi barmoqlar sonini tashlaganda mashq tugagan hisoblanadi.

Mashqlar turlicha o'tishi mumkin. Ba'zan guruhga vazifa yechilmaguncha o'ttiz martagacha takrorlash talab qilinadi, ba'zan to'rt-besh marta yetarli bo'ladi. Har qanday holatda ham, mashq muhokama qilish uchun boy ma'lumotlar beradi.

### **Chigilni yechish**

Qatnashchilar doira shaklida turadilar.

Yo'riqnoma: «Kelinglar, bir-birimizga yaqinroq turib olamiz, kichikroq doira hosil qilib, barchamiz qo'llarimizni doira o'rtasiga cho'zamiz. Mening ishoram bilan hammamiz bir vaqtda qo'llarimizni ushlaymiz. Shunday ushlaymiz kerakki, har birimizning qo'limiz orasida yana kimnidir qo'llari bo'lishi kerak. Shuning uchun yonimizdagi kishi qo'lini emas, keyingi qarshimizdagi odamnikini ushlashga harakat qilaylik. Ikkala qo'lingiz bilan bir odamning ikkala qo'lini ushlamang — bir qo'lingiz bilan bir ishtirokchining, ikkinchi qo'lingiz bilan esa ikkinchi ishtirokchining qo'lini ushlang. Shunday qilib boshlaymiz. Bir, ikki, uch».

Shundan so'ng trener barcha qo'llar bir-birini ushlashganiga ishonch hosil qilganidan so'ng, guruh qatnashchilariga qo'llarini qo'yib yubormay, mashqni boshlash, ya'ni «chigilni yozishni» taklif qiladi. Trener ham bevosita mashqda qatnashadi, ammo bu paytda turli yechimlar taklif etmaydi. Mashq bajarish davomida, guruhda mashqni

yechish qiyinligi yoki mumkin emasligi to'g'risida turli fikrlar aytiladi. Bunday paytda trener xotirjamlik bilan bu hal qilinishi mumkin bo'lgan vazifa ekanligini, chigal yechilishi mumkinligini ta'kidlashi kerak. Mashq uch variantning biror ko'rinishida ijro etilishi mumkin.

Guruhning barcha qatnashchilari bir doira ichida turadilar. Bu paytda kimdir orqasiga, yana kimdir yoniga qarab turishi mumkin, asosiysi doira holati saqlanib qolishi kerak.

Agar guruh katta bo'lsa unda ikki yoki undan ortiq mustaqil doiralar tashkil qilinishi mumkin.

Guruh qatnashchilari zanjir bo'lib, bir-birlariga bog'lanib doira hosil qiladilar. Bu mashqni bajarish uchun guruh qatnashchilariga vaqtni 3-5 minutdan 20 minutgacha belgilash mumkin. Ba'zan guruhlar zanjirni yechishdan bosh tortishlari mumkin.

Mashq yakunlangandan so'ng guruhga bunday savollar bilan murojaat qilinadi: «Mashqni bajarishga nima yordam berdi?» yoki «Mashqni tezroq bajarish uchun yana nima qilsa bo'lardi?». «Bu mashqni tezroq bajarish uchun nima xalaqit berdi?». Bizning nazarimizda bunday savollar berish maqsadga muvofiqdir. Odatda ishtirokchilar, o'yin muhokamasida shunday fikrga keladilar: «Bunday mashqni muvaffaqiyatli hal etish uchun hamkorlik, bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lish, barcha o'zini erkin his etishi, barcha kishini fikrlarini inobatga olish va mashq jarayonini diqqat bilan kuzatib borish kerak ekan». Bu mashq guruhni biriktirishga, shuningdek, og'ir kechgan kunni maroqli yakunlash imkonini beradi. Mashqni extiyotkorlik bilan bajarish talab qilinadi, chunki u ishtirokchilar orasida jismoniy bog'lanishni taqozo etadi. Agar trener o'yin davomida biror qatnashchining toliqqanini sezsa, uni o'yindan ozod qilishi mumkin.

## **ISHCHANLIK MUHITINI YARATUVCHI O'YINLAR**

### **Joy almashish**

Ishtirokchilar doira atrofida o'tiradilar, trener esa doira o'rtasida turadi.

Yo'riqnoma: «Doiraning markazida turgan kishi (boshida bu men bo'laman) biror umumiy belgiga ega bo'lgan narsani hammaga taklif etadi va kimda shu belgi bo'lsa u joyini almashtiradi. Masalan, men

shunday deyman: «Singlisi borlar joyingizni almashtiring» va hamma singlisi borlar joylarini almashtirishlari kerak. Bunda doiraning markazida turgan kishi bo'shagan joyni egallashga ulgurishi kerak. Markazda joysiz qolgan ishtirokchi esa o'yinni davom ettirishi kerak».

Mashq tugaganidan so'ng trener guruhga quyidagi savollar bilan murojaat etishi mumkin: «Siz o'zingizni qanday sezyapsiz?», «Hozir sizning kayfiyatingiz qanday?». Qoidagi muvofiq mashqlar quyidagicha o'tadi. U qizishganlikni pasaytiradi, kayfiyatini ko'taradi, diqqat va fikrlarni faollashtiradi.

### **O'tirib turish**

Hamma ishtirokchilar doira shaklida o'tiradilar.

Yo'riqnomasi: «Men sizlarga u yoki bu panjalar sonini ko'rsataman. Ba'zan bir qo'lda, ba'zan ikki qo'lda, men qo'limni ko'tarishim bilan, shuncha ishtirokchilar o'rinlaridan turishlari kerak, nechta ekanligini men ko'rsataman (ko'p ham, oz ham emas). Masalan: agar men qo'limni ko'tarib to'rtta panjamni ko'rsatsam (ko'taradi va ko'rsatadi) unda mumkin qadar tezroq sizlardan to'rt kishi turadi. Qachonki, men kaftimni tushirsam, ular o'tirishlari mumkin».

Trener guruhga bir necha marta u yoki bu panjalarining sonini ko'rsatadi. Mashq boshlanishida 5-7 panjani ko'rsatish yaxshiroq bo'ladi, oxiriga borib esa 1-2 ta panjalarni. Mashqning bajarilishi jarayonida trener guruh ishtirokchilarining vazifani bajarishga bo'lgan intilishlari haqida mulohaza yuritadi va taalluqli xulosalar chiqaradi. Muhokama vaqtida trener guruhga bir necha savollar berishi mumkin: «Biz oldimizga qo'yilgan vazifani bajarishimizda nima yordam berdi yoki uning bajarilishini nima qiyinlashtirdi?», «Siz turishga qaror qilganingizda nimani nazarda tutdingiz? Agar bizda bu vazifani oldindan muhokama qilish, qaror qilish imkoniyati bo'lganda, ishni qanday tashkil etgan bo'lardik?».

### **Mevali salat**

O'yin ishtirokchilari doira shaklida o'tirib olishadi, ulardan bittasi (chaqiruvchi) o'rtada turadi. U uchta odamdan eng yaxshi ko'rgan mevasining nomini aytishini so'raydi va keyin doira bo'ylab yurib, o'zidan boshlab har bir ishtirokchiga aytilgan uch xil mevaning nomi bilan «ism» qo'yib chiqadi. Masalan, agar mevalar — olma, anor, uzum bo'lsa, o'ziga «olma» deb nom qo'yadi va qolganlarga ham shu tarzda

nom qo'yib chiqishni davom ettiradi (ishtirokchilarning hammasiga ism qo'yilmaguncha). Shundan so'ng boshqalarga nom bergan o'rtadagi odam mevalardan birortasining (masalan, olma) nomini aytga, barcha «olmalar» o'rinlarini almashishlari lozim bo'ladi, o'rtadagi odam esa ulardan birining o'rniga o'tirib olishga harakat qilishi kerak. Turib qolgan odam chaqiruvchi bo'ladi. Agar o'rtadagi odam «mevali salat» desa barcha ishtirokchilar o'rinlarini almashadilar.

Bu o'yin juda qiziqarli va jalb qilish xususiyatiga ega bulib, ishtirokchilar o'rtasidagi baremi yo'qotishga va ularni tez o'ylab, tez harakat qilishga undaydi.

### **Hayvonot olami**

O'yin ishtirokchilari doira bo'lib turishadi va o'zlariga birorta hayvonning nomini tanlashadi. 20 kishidan iborat guruh uchun 6 ta hayvonning nomi yetarli. Bir xildagi hayvonlarning nomi qog'ozga sonlar bilan yozilib, ularga shulardan birini olish taklif etiladi. Ishtirokchilar ma'lum bir hayvonlarni tanlab bo'lganlaridan so'ng ko'zlarini yumib, atrofda aylanib yuradilar va o'zlari mansub bo'lgan turdagi sheriklarini izlaydilar. Bunda hamma o'ziga xos ovoz bilan bir-birini chorlashi kerak (masalan, «ba-a-ba-a», «myov-myov», «vov-vov» va h.k.). Ikkita bir xil «hayvon» bir-birini topib olsa, ular qo'llarini mahkam ushlagancha keyingi sherigini izlashga tushadilar va barcha sherigini topib, toki alohida guruhlar tuzilmaguncha davom etaveradi.

Bu kirish o'yini hisoblanib, u asosan ishtirokchilarda bir-birlariga nisbatan ishonch hissini hosil qiladi.

Quyida "Pedagogika nazariyasi" va "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanlaridan o'rganiladigan mavzular yuzasidan interfaol usullar, turli o'yinlarni metodik ishlanmalari keltirilgan.

**“Pedagogik nazariya” va “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanlaridan o‘rganilayotgan mavzular bo‘yicha seminar treninglarni yo‘lga qo‘yish tavsifi**

№	Seminar trening o‘tkaziladigan mavzular	Turli mashqlar, o‘yinlar, uslublar	Izoh
	Pedagogika predmeti, uning asosiy tushunchalari va ularning o‘zaro bog‘liqligi.	Intellektual kommunikativ o‘yin: Tanishuv bosqichini tashkil qilish. “Kutishlar” bosqichi. Blits-so‘rov. “Kichik esse” metodi asosida talabalar tomonidan o‘quv kursining umumiy mohiyati to‘g‘risidagi bilimlari darajasini aniqlash.	
	“Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to‘g‘risidagi qonunlar.	Talabalarni seminar trening tartibi va rejalari bilan tanishtirish. Intellektual kommunikativ o‘yin: mavzuga oid tarqatma material. Yakka va kichik guruhda ishlash. “6x6x6” uslubi asosida talabalarning “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mohiyati, tamoyillari, kadrlar tayyorlash milliy modeli, uni ro‘yobga chiqarish bosqichlari to‘g‘risidagi bilimlarini aniqlash.	
	Jamiyatda pedagogning roli va o‘rni.	Talabalarni seminar trening tartibi va rejalari bilan tanishtirish. Suhbat. O‘qituvchining shaxsi va unga qo‘yilgan talablar. O‘qituvchi faoliyati va kasbiy imkoniyatlari. “Klaster” metodi asosida talabalar ishtirokida pedagogka xos ma’naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi “Zamonaviy pedagog portreti”ni yaratish. “Tushunchalar taxlili” uslubi “SCORE” interfaol uslubi.	
	Shaxs, ta’lim va tarbiya.	Muloqot mavzusiga tegishli “Orqadagi yozuvlar”. “Toping-chi, bu kim?” BREYNRAYTING uslubi	
	Yaxlit pedagogik jarayon.	“Tushunchalar tahlili”, KBI (kuzatish, bahslashish, ishontirish) texnologiyasi	
	Didaktika-o‘qitish va ta’lim	“Tushunchalar tahlili”.	

	nazariyasi sifatida.		
	Ta'lim prinsiplari.		
	O'qitish metodlari.	“Zinama-zina” texnologiyasi. “Ta'lim metodlari” mavzusidagi konseptual jadval.	
	Pedagogik texnologiya. Pedagogik innovatsiya.	“FSMU” metodi, “Assiment” texnikasi, Ven Diogrammasi, “Xulosalash» (Rezyume)	
	O'qitish diagnostikasi.	«Blits-o'yin” metodi	
	Tarbiya jarayoni mohiyati.	Trening “Kontakt”, “Pedagogikada” trening, “Qadriyatlar”	
	Ta'lim mazmuni	“Charxpalak” texnologiyasi	
	Tarbiya prinsiplar.	Qadamma-qadam treninggi	
	Tarbiya metodlari va texnologiyasi.	«Beshinchisi ortiqcha» texnikasi “Assiment” texnikasi Venn Diagrammasi SWOT-tahlil	
	Oila tarbiyasi.	“Yomg'ir” o'yini, Panorama treninggi, SWOT-tahlil	
	Islom madaniyat va tarbiya.	Ikki qismli kundalik. “Zararli odatlar” trening	
	O'zbekiston Respublikasida pedagogik ta'limotning o'ziga xosligi.	“Aqliy xujum” (BREYNSTORMING) uslubi “Yumaloqlangan qor” uslubi	
	Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi.	“Bumerang” texnologiyasi	
	Pedagogik fikrlar rivojlanishida o'qituvchi mahorati masalalari.	“Shoxsupada 15-soniya” Shaxslararo munosabatlar va nizoli vaziyatlarni hal etish usullari. «Insert» usuli, Blits-so'rov. B.B.B-texnikasi.	

## “Klaster”

**“Klaster”** (“klaster” – g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan o‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu metoddan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

1. Nimaniki o‘ylagan bo‘lsangiz, shuni qog‘ozga yozing. Fikringizning sifati to‘g‘risida o‘ylab o‘tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e‘tibor bermang.

3. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunicha, yozishdan to‘xtamang. Agar ma‘lum muddat biror bir g‘oyani o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilguniga qadar davom ettiring.

4. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda mazkur g‘oyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni ko‘rsatishga harakat qiling. G‘oyalar yig‘indisining sifati va ular o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rsatishni cheklamang.

Ushbu metod yordamida talabalar topshiriq yuzasidan fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida ifodalaydilar.

## “Blits-so‘rov”

**“Blits-so‘rov”** (inglizcha “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Unga ko‘ra, o‘qituvchi o‘rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqadi va talabalarning e‘tiborlariga havola etadi. Talabalar berilgan savolga qisqa muddatda, qisqa va aniq javob qaytara olishlari lozim. Guruh yoki juftlikda ishlashda bir nafar talaba berilgan savolga javob qaytaradi, uning sheriklari yoki guruhdoshlari javobni to‘ldirishlari mumkin. Biroq, fikrlar takrorlanmasligi lozim. Metodni

qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati talabalar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

**“Tezkor so‘rov” savollari**

**Pedagogika fani nimalarni o‘rgatadi?**

**Pedagogika fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?**

**Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini ayting va mohiyatini yoriting.**

**Qanday fanlar pedagogik fanlar tizimiga kiradi?**

**“6x6x6” uslubi**

“6x6x6” uslubi yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Ushbu metod asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangi shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

Mazkur metod yordamida mashg‘ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 tadan stol qo‘yib chiqadi.

2. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo‘linadilar. O‘quvchilarni guruhlariga bo‘lishda o‘qituvchi quyidagicha yo‘l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan ob’ekt (masalan, kema, to‘lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo‘yib chiqadi. Mashg‘ulot ishtirokchilariga kema, to‘lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati tasvirlangan (jami 36 ta) varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o‘quvchi o‘zi tanlagan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo‘yilgan studan joy egallaydi.



3. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi hamda guruhlariga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

4. O'qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi.

5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo'lishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari)ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

### **“Suhbat” uslubi**

“Suhbat” uslubi mashg'ulot jarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasida savol va javob shaklida tashkil etiladigan dialogik ta'lim metodi bo'lib, jonli muloqotga asoslanadi. Metodning afzalligi suhbat jarayonida oydinlashmagan masalalar yuzasidan qo'shimcha savollar berish hamda talabaning fikrlashga undash imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi. Ta'limiy munosabatning jonli muloqotga asoslanishi esa o'qituvchi va talabalar o'rtasida ruhiy yaqinlikni qaror toptirib, faol fikr almashish imkonini beradi. Mazkur metodni qo'llashda quyidagi tartibda ish ko'riladi: 1) o'qituvchi mavzu yuzasidan talabalar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan masalalarga oid savollarni ishlab chiqadi; 2) talabalar savollar bilan tanishtiriladi; 3) ular savollar yuzasidan mulohaza yuritib, masalaning mohiyatini yuritishga kirishadilar; 4) agarda talabalarning javoblari qoniqarli deb topilsa, navbatdagi savol beriladi; 5) bordi-yu, javob qoniqarli deb topilmasa, u holda o'qituvchi talabaga aynan mana shu masalani oydinlashtirishga yordam beradigan qo'shimcha savol beradi; 6) o'rganilayotgan masalaning mohiyati to'la yoritilgach, suhbat jarayoniga yakun yasaladi.

**Suhbat uslubi** - og'zaki bayon qilish uslubi bo'lib, talaba (yoki

o'quvchi)larning bilimlarini asta - sekin o'zlashtirishlariga olib keluvchi puxta o'ylangan savollar tizimidir. Bu uslub materiallarini takrorlash, mustahkamlash va yangi bilimlarni bayon qilishda qo'llaniladi.

Everetik suhbat (everestika yunoncha so'z bo'lib – heurisko – izlayman, topaman, kashf etaman ma'nosini anglatadi).

Maqsad – talabalarning mohirona qo'ygan savollari yordamida hamda talaba (yoki o'quvchi)larning tirishqoqligi va mustaqil fikrlari tufayli ularni yangi bilimlarni jadal o'zlashtirishlarini ta'minlash.

Bu suhbatda o'qituvchining bitta savoliga talabalarning ko'plab javoblarini kutish mumkin.

Katexizik suhbat (katexizis yunoncha so'z bo'lib, katechesis – “nasihat, o'git” ma'nosini anglatadi) – biron-bir ta'limot asoslarining savol-javob tarzidagi qisqacha bayoni.

Maqsad – talabalar bilimining tushunganlik va o'zlashtirganliklarini nazorat qilishdir. Bu uslub, birinchi o'rinda, xotira va tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi. Bu suhbatda o'qituvchining bitta savoliga talabalar bitta aniq to'g'ri javob berishlari kerak.

### «Tushunchalar tahlili» uslubi

**Uslubning mohiyati.** Ushbu uslub o'tilgan (chorak, semestr yoki o'quv yilida tugagan) o'quv predmeti yoki bo'lim barcha mavzularini talaba tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib, baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talaba (yoki o'quvchi)larni baholay olishga yo'naltirilgan.

**Uslubning maqsadi.** Talabalarni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va kichik guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek, o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatish.

**Uslubning qo'llanishi:** o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o'quv predmetining biron-bir bo'limi tugallanganda) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini

baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin talaba (yoki o'quvchi)larning bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan. Ushbu uslubni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

**Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar:** tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro'yxati, qalam (yoki ruchka), slayd.

**Izoh:** reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljallangan bo'lsa, guruh o'quvchilari soniga, agar kichik guruhlarda o'tkazish belgilangan bo'lsa, u holda guruhlar soniga qarab, tarqatma materiallar tayyorlanadi).

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

talaba (yoki o'quvchi)larni guruhlariga (sharoitga qarab) ajratiladi;

talaba (yoki o'quvchi)lar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;

tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.

talaba (yoki o'quvchi)lar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;

talaba (yoki o'quvchi)lar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lsalar shunday) izohlab yozadilar (yakka tartibda);

o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo'lsa) tanishtiriladi;

har bir talaba (yoki o'quvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek, bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

**Izoh:** «Tushunchalar tahlili» uslubini «Chaynvord», «Uzluksiz zanjir», «Klaster», «Blits-zanjir» shaklida ham tashkil etish mumkin.

«Tushunchalar tahlili» uslubidan bir darsning o'zida dars boshlanishida o'tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi

mavzu bo'yicha talaba (yoki o'quvchi)larning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egallaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin.

Quyidagi mashg'ulotda foydalaniladigan tarqatma materialni misol tariqasida keltiramiz (ilova).

<b>Tushunchalar</b>	<b>Mazmuni</b>
Ta'lim	
Tarbiya	
Ta'lim mazmuni	
O'qitish uslublari	
O'qitish shakllari	
Dars(o'quv mashg'uloti)	
O'qitish vositalari	
Nazorat uslublari	
Baholash uslublari	
Texnologiya	

### «SCORE» interfaol uslubi

**Uslub maqsadi:** o'quvchilarga o'zgarlar fikrini hurmat qilgan holda dalillash, ishontrish, asoslash; murosaga kelish va izlash qobiliyatlarini rivojlantirish; muammoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilish, ularni hal qilish yo'llarini izlab topish, munozara olib borish mahorati, o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olishga o'rgatish va bahslashish madaniyatini shakllantirish.

**Uslubdan kutiladigan natija:** o'quvchilar mashg'ulot davomida nostandart vaziyatlarda o'zini va jamoani boshqara olish, muammoli holatlarni tushuna bilish va ularning yechimini aniqlashda o'z uslublarini topa bilish, o'z fikrlarini boshqalarga o'tkaza olish, ta'sir eta olish usullariga hamda bahslashish madaniyatini o'rganadilar.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.** Mashg'ulot belgilangan vaqtda o'quvchilarning xonaga (mashg'ulot o'tkaziladigan joyga) kirib kelishidan boshlanadi. O'quvchilar xonaga kirib kelishar ekan, mashg'ulotdan oldin tarbiyachi tomonidan eshikning yonidagi stol ustiga tayyorlab qo'yilgan, ingliz tilida yozilgan harflardan (S, S, O, R, Ye) bittasini olib, stol atrofiga joylashadilar (stollarga ham shu harflar qo'yilgan, har bir stol atrofida o'quvchilar soni bir xil bo'lishi hisobga olinadi). O'quvchilar joylashib olishgach, tarbiyachi mashg'ulotni boshlaydi.

Tarbiyachi mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan o'quvchilarni tanishtirishdan boshlaydi. Tarbiyachi shu kunning dolzarb muammolaridan kelib chiqqan holda, mashg'ulotga o'quvchilar bilan birgalikda mavzu yoki muammo tanlaydi va guruhlardan ularning har biri tanlangan mavzu yoki muammoning bir tomonini o'rganishlarini (stollarga shu guruh tomonidan umumiy muammoning qaysi jihatlari haqida so'z yuritishlari kerakligini ko'rsatuvchi belgi yoki yozuvli material qo'yiladi), so'ngra, munozara yuritib, o'zlarining fikrlarini yozma (og'zaki) bayon qilishlari kerakligini tushuntiradi. Vazifa uchun vaqt belgilaydi. Guruhlarning ishlari tayyor bo'lgach, ular birin-ketin o'rtaga chiqib, ishlarini taqdimot qiladilar. Taqdimot avval muammoning - belgisi (S), keyin uning - sababi (S), so'ngra natijasi (O), manbai (R) va samarasi (E) tartibda olib boriladi. Boshqa guruh a'zolari taqdimot qilayotgan guruhning fikrlarini to'ldirishlari mumkin. Barcha guruhlarning taqdimoti nihoyasiga yetgach, bildirilgan fikrlar, taqdimot materiallari umumlashtirilib, xulosa qilinadi. Tarbiyachi o'quvchilar bilan birgalikda guruhlar faoliyatiga baho beradi, mashg'ulotga yakun

yasaydi, o'quvchilarning mashg'ulot haqidagi fikrlarini aniqlaydi.

Izoh: ushbu mashg'ulotni "SCORE" interfaol uslubi yordamida o'tkazish tavsiya etiladi, shuning uchun o'quvchilar har bir harf bo'yicha guruhga bo'lingan holda joylashishadi. Ushbu interfaol uslubini o'tkazish, qoidalariga to'liq rioya qilish mashg'ulotning samarali va ijobiy natijali bo'lishiga, o'quvchilarni mustaqil fikr bildirishlariga, faol bo'lishlariga imkoniyat yaratadi. Quyida ushbu interfaol uslub haqida tushuncha beriladi.

### **Interfaol uslubi haqida ma'lumot**

"SCORE" (BSOMS) interfaol metodi o'quvchilarda muammolarni aniqlash qobiliyati, kognitiv ko'nikmalarni va malakalarni rivojlantirish, mavjud manbalardan va imkoniyatlardan foydalanib, muammoning yechimini topishni shakllantirishga yo'naltirilgan.

S (symptom) muammoning belgisi - muammoning muhokamasi vaqt turli ziddiyatlarga, tushunmovchiliklarga keltiruvchi yopiq elementlar yo'nalishlarining (masalan, iqtisodiyotda, siyosatda, ta'lim-tarbiya, kishilar o'rtasidagi munosabatda uchraydigan tushunmovchiliklar, ziddiyatlarning), hali ochilmagan, yopiq qirralarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan texnologiyalarni, harakatlarni aniqlashdir.

S (cause) - sababi - muammoning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan yopiq qirralar (masalan, ziddiyat va tushunmovchilikka olib keluvchi eski qarashlar, an'anaviy fikr va mulohazalar)ni izlash, aniqlash.

O (outcome) - natijasi - kutiladigan natijaga ega bo'lish muammoga olib kelgan yopiq qirralar o'rni bosuvchi yangi texnologiyalar harakatlarni, maqsadni, holatlarni belgilash.

R (resources) - manbai - muammoning ochilmagan kirralarini o'zgartirishga, uning yangi maqsadlarini, texnologiya va harakatlarni yoki kutiladigan, natijaga erishishga xizmat qiladigan vositalarini, muqobil materiallarni hamda "qaerda?", "qachon?", "nima?", "qanday?", "nimaga?", "kim?" savollari asosida muammoni yechishning kerakli asosiy manbalarini topishdan iborat.

Ye (effect) - samarasi - muammoning yechimi asosida aniq bir maqsad, bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan mukammal natija orqali yuksak samaraga erishish, aniq maqsadli amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Muammoli holat va vaziyatni aniqlashga doir savollar:

1. Muammoning qanday yopiq qirralari bor?
2. Muammoda yopiq qirralarning bo'lish sabablari nimada?
3. Qanday manbalar aniqlangan sabablarni yo'qotishga yordam beradi?
4. Ushbu muammo bo'yicha maqsad va natija qanday bo'lishi mumkin?
5. Qaysi manbalar samarali natijaga erishishga imkon beradi?
6. Erishilgan maqsad, natija qanchalik uzoq muddat davomida samara bera oladi?

### **"Pinbord" texnikasi**

(inglizchadan: pin - mahkamlash, board -taxta)

Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashni amalga oshirishga, jamoa tarzida yagona yoki aksincha, qarama-qarshi holatni shakllantirishga imkon beradi.



Tarbiyachi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarlarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy "Aqliy hujum"ning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi).



Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydi va eng optimal (muqobil) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida kog'ozlarga yozma sinf taxtasiga mahkamlaydilar.



Guruh vakillari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- fikrlarning tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;
- shu belgilar asosida o'quv taxtasidagi (kog'oz varaqlaridagi) barcha fikrlarni guruhlarga ajratadilar;
- ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi holatlari ishlab chiqiladi.

### **Breynstorming uslubi**

Bu atama inglizcha soʻz boʻlib, ikki tushunchadan iborat: *brain-miya*, *storming-hujum*, boʻron, qattiq hayajon. Uslubning “miyani hayajonga solish” deb yuritilishi, uning asl mohiyatini ochib beradi, lekin baʼzida uni “Jamoaviy ijodiy fikrlash”, deb ham tushunsa boʻladi. Rus tilida uslub “Mozgovaya ataka”, oʻzbek tilida esa “Aqliy hujum” yoki “Fikrlar hujumi” deyilishi, uning asl mohiyatini saqlashga yordam beradi.

Bu uslubning asosiy tamoyili: erkin muloqot-munozara jarayonida berilgan mavzu asosida yangi novatorlik gʻoya, fikrlar toʻplanadi. Aytilgan gʻoya, fikrlar muhokama ham, tanqid ham qilinmaydi. Munozara erkin va oʻzaro samimiy munosabat holatida oʻtkaziladi. Toʻplangan gʻoya, fikrlar asosida mavzu boʻyicha umumiy fikr shakllantiriladi. Aytilgan gʻoya, fikrlarning sifati va ular asosida tuzilgan umumiy gʻoya, fikrlarning qay darajada muhimligi, muammo yoki mavzu bilan yaxshi tanish boʻlgan mutaxassis-ekspertlar tomonidan baholanadi.

Ushbu jarayonda oʻqituvchining asosiy vazifasi – imkon boricha har bir aytilgan gʻoya, fikrni toʻplab borishdan iborat.

#### **Breynrayting uslubi**

Ushbu uslubning qoʻllanishi breynstorming uslubiga oʻxshash boʻlib, faqat unda barcha gʻoya, fikrlar yozma bayon etiladi. Bu esa, oʻz gʻoya va fikrlarini ogʻzaki bayon etishga uyaladigan yoki qiylanadigan baʼzi tiglovchilar uchun qulaylik yaratadi. Talabalar tomonidan yozilgan fikrlar, gʻoyalarning imloviy va uslubiy xatolariga eʼtibor qaratilgan hamda yozilgan fikrlar oralarida keyinchalik xayolga kelgan fikrlarni yozish uchun boʻsh joylar ham qoldiriladi.

Talabalar oʻz fikrlarini erkin, tanqid qilmasdan ifoda etishga chaqiriladilar. Gʻoyalari tahlili keyinroq oʻtkaziladi bu uslubdan foydalanganda, muammoni yechish variantlari imkon qadar ortadi.

### **KBI (kuzatish, bahslashish, ishontirish) texnologiyasi**

**Texnologiyaning maqsadi:** talaba (yoki oʻquvchi)larni hayotda faol oʻrni topishlarini, peshqadamlilik va sardorlik sifatlarini, jamoada koʻnikmalarini, shuningdek, oʻzgalar fikrini hurmat qilgan holda dalil keltira olish, oʻz fikrini isbotlay olish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish mahoratlarini hamda murosaga kelish, izlanish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish.



**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:** Bu texnologiya qo'llaniladigan mashg'ulot talaba (yoki o'quvchi)lardan oldindan bo'ladigan tayyorgarlikni talab qiladi. Mashg'ulot mavzusi talabalar auditoriyasiga oldindan ma'lum qilinadi, vazifalarni bajarish uchun tayyorlanishga beriladigan aniq vaqt, mavzu mazmuni, uning murakkabligi va darajasiga qarab belgilanadi.

Ushbu mashg'ulot bahs-munozara uslubiga asoslangan bo'lib, o'zining aniq o'tkazilish vaqti va tartibiga egadir. O'qituvchi dastlab talabalarni mashg'ulot o'tkazish tartib-qoidalari bilan tanishtiradi va ularni kichik guruhlariga ajratadi. Misol tariqasida, «Shaxs va madaniy axloq» mavzusidagi mashg'ulotni o'tkazish tartibini ko'rib chiqamiz. Mashg'ulotning boshida talaba (yoki o'quvchi)lar muhokama qilishlari uchun bir necha savollar oladilar. **Masalan:**

- Madaniyat nima?
- Axloqiy madaniyat nima?
- Shaxs sifati ko'rinishida axloq-odobning o'rni qanday?
- Qanday qilib madaniyatli bo'lish mumkin?

Kichik guruh qatnashchilari o'z xohishlari bo'yicha bittadan savol tanlab oladilar va so'zga chiqishga tayyorlanadilar. Ular o'zlari tanlagan savol yuzasidan o'z tushunchalari, mavzuga bo'lgan yondashuvlari, munosabatlari hamda ushbu savollarga javoblarini berishda o'zlarining egallagan holatlari qanchalik to'g'ri ekanligiga chiqishlari orqali talabalarni ishonitirishga harakat qiladilar. O'qituvchi ko'rsatmasiga binoan boshqa kichik guruh qatnashchilari aytilgan fikr va so'zga chiqqan talaba(yoki o'quvchi)larni egallagan holatlariga qarshi fikrlar aytadi, ya'ni so'zga chiqqan kichik guruh tanlagan yo'lni rad etadilar va shu orqali ularni bahs-munozara, tortishuvga undaydilar.

Bahs-munozara yakunida har bir so'zga chiqqan kichik guruh boshqa kichik guruh a'zolarini o'zlarining tortishuvdagi fikrlari, tanlagan holatlari, dalil va isbotlari qanchalik to'g'ri ekanligiga ularni ishonitira olishlari va o'z tomonlariga og'dira olishlari, iloji bo'lsa, ularni o'z guruhlariga qo'sha olishlari kerak.

Mashg'ulotning oxirgi bosqichiga o'qituvchi yakun yasaydi va bahs-munozara bo'yicha o'z fikrini bildiradi.

KBI texnologiyasi bir **kancha variantda** o'tkazilishi mumkin.

Masalan, tinglovchilardan (o'z xohishlariga qarab) tashabbuskorlar guruhini tuzib olish mumkin va bu guruh bahs-munozara davomida aytilgan qiziqarli fikrlar, dalillar, asosiy tushunchalar, vaziyatdan

chiquvchi holatlar, qiziqarli javoblar, mulohaza, takliflar va boshqalarni o'quv xonasining taxtasiga yoki vatmanga yozib boradi. Tashabbuskorlar guruhining vazifalari qatoriga: bahs-munozaraning borishini nazorat qilish, qatnashchilarni faollashtirish, kerak bo'lsa, ba'zilariga alohida tanbeh va tilaklar bildirishni ham kiritish mumkin. Bunday tashabbuskorlar guruhi auditoriyasida bir-biriga o'xshash fikrlar bildirilishi, guruhlarni faollashtiradi, ularni erkin holatda o'z fikrlarini aytishlariga kerakli muhit va sharoitni yaratadi. Shuningdek, bu guruh mashg'ulotning xulosa qismida ham ishtirok etib, guruhlarning tanlagan holatlari, bildirgan fikrlari va tortishuvlariga o'z munosabatlarini bildirishlari mumkin.

Bahs-munoraza tashkil etish uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- jamoat transportidagi madaniyat odobi;
- ta'lim muassasasi (dars jarayoni, tanaffus vaqti)dagi madaniyat odobi;
- stol atrofidagi (ovqatlanish, suhbat, uchrashuv) madaniyat odobi;
- oiladagi madaniyat odobi;
- jamoadagi madaniyat odobi;
- jamoat joylaridagi madaniyat odobi;
- yoshlarning madaniyat odobi;
- so'zlashish (telefonda, suhbatda, uchrashuv vaqtida) madaniyati;
- an'analar va madaniyat;
- salomlashish odobi va boshqalar.

Yuqoridagi bahs-munozaralarni o'tkazish mavzulari odob-axloq, madaniyat yo'nalishida (masalan, «Mening hayotda tutgan o'rnim», «Odob-axloqli, madaniyatli bo'lishim uchun nima qilishim kerak?» va hakazo) bo'lgani maqsadga muvofiq, chunki bu mavzular yoshlarni ko'proq qiziqtiradi

### **«SWOT-tahlil» metodi**

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

**S – (strength)** – kuchli tomonlari;

**W – (weakness)** – zaif, kuchsiz tomonlari;

**O – (opportunity)** – imkoniyatlari;

**T – (threat) – to‘siqlar**

**Namuna:** O‘qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning kuchli va kuchsiz tomonlari, ichki imkoniyatlari hamda o‘qitishda multimediya vositalaridan foydalanishga to‘sqinlik qiluvchi tashqi xavflarni ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	O‘qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning kuchli tomonlari	Axborotlarni samarali o‘zlashtirish
<b>W</b>	O‘qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning kuchsiz tomonlari	Axborotlarni qabul qilish faqat bir tomonlama bo‘lishi, auditoriyada pedagogik muloqotning sustlashuvi
<b>O</b>	O‘qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	Auditoriyaning jalb etish, vaqtdan yutish, samarali o‘zlashtirish, tezkor qabul qilish, ijodiy tasavvurni shakllantirish
<b>T</b>	To‘siqlar (tashqi)	Texnika va shaxs omilining qarama-qarshiligi.

“Tarbiyada -oila, mahalla va jamoatchilik hamkorligi” mavzusidagi «SWOT-tahlil».

<b>S</b>	Hamkorlikning kuchli tomonlari	
<b>W</b>	Hamkorlikning kuchsiz tomonlari	
<b>O</b>	Hamkorlik imkoniyatlari	
<b>T</b>	Hamkorlikdagi to‘siqlar	

<b>O‘quvchilarda zararli odatlarning oldini olish</b>	
<b>S (kuchli tomonlari)</b>	<b>W (kuchsiz tomonlari)</b>
<b>O (imkoniyatlari)</b>	<b>T (to‘siqlar)</b>

### **Tarbiya metodlari mavzusi yuzasidan «SWOT-tahlib».**

**Topshiriq:** Tarbiyada jazo metodidan foydalanishning kuchli va kuchsiz tomonlari, imkoniyatlari hamda bu jarayonga to'rsiqlik qiluvchi tashqi xavflarni ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Tarbiyada jazo metodidan foydalanishning kuchli tomonlari	
<b>W</b>	Tarbiyada jazo metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	
<b>O</b>	Tarbiyada jazo metodidan foydalanishning imkoniyatlari(ichki)	
<b>T</b>	To'rsiqlar (tashqi)	

### **«FSMU» metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod o'quvchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

Talabalarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

Har bir talabaga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlab, misol keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

Har bir talaba yakka tartibda tarqatilgan qog'ozlardagi FSMU ning to'rt bosqichini taklif etilgan xulosa yoki g'oyaga nisbatan o'z mustaqil mulohazalarini yozma bayon etgan holda to'ldiradi;

Navbatdagi bosqichlarda talabalar kichik guruhlariga bo'linadilar va har bir tinglovchi o'zi yozgan FSMU bilan guruh a'zolarini tanishtiradi;

Guruh a'zolari barcha fikrlarni o'rganib, ularni umumlashtiradilar va o'z taqdimotlarini o'tkazadilar;

O'qituvchi tomonidan barcha taqdimotlar umumlashtiriladi, kerakli xulosalar shakllantiriladi va trening yakunlanadi. Masalan: «Suv - hayot manbai», «Matematika aql gimnastikasi», «Jangovar tayyorgarlik-g'alaba asosi», «Insonparvarlik-pedagogikaning asosi» kabi mavzularda «FSMU» o'tkazish mumkin.

**«Innovatsion texnologiyalar – ta'lim-tarbiya samarador-ligini oshiradi» mavzusi yuzasidan «FSMU» o'tkazish namunasi**

<b>F</b> – fikringizni bayon eting.	
<b>S</b> – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
<b>M</b> – ko'rsatgan sababingizni isbotlab, misol keltiring	
<b>U</b> – fikringizni umumlashtiring.	

#### **“Assesment” texnikasi**

**Maqsadi:** baholash, nazorat qilish, ta'lim oluvchilarning bilim darajasi, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli aspektlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> R.J. Ishmuhammedov.

**Namuna: "Ta'limda innovatsiya" mavzusida tuzilgan  
"Assesment" namunasi:**

<p align="center"><b>Test</b></p> <p>Innovatsiya so'zining lug'aviy ma'nosi? A. Yangilik; V. Yangi g'oya S. Yangilik kiritish.</p>	<p align="center"><b>Qiyosiy tahlil</b></p> <p>Innovatsion va an'anaviy o'qitish turlarini qiyosiy tahlil qiling</p>
<p align="center"><b>Simptom</b></p> <p>O'qituvchi innovatsion faoliyatining asosiy belgilarini sanang.</p>	<p align="center"><b>Amaliy ko'nikma</b></p> <p>Kash-hunar kollejaridagi innovatsion o'qitish metodlariga misol keltiring...</p>

**"Tarbiya metodlari" mavzusida tuzilgan "Assesment" namunasi:**

<p align="center"><b>Test</b></p> <p>a) shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli, uzluksiz jarayon; b) shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi tizim v) shaxs dunyoqarashini shakllantiruvchi jarayon</p>	<p align="center"><b>Amaliy ko'nikma</b></p> <p>Tarbiya metodlarini sanang...</p>
<p align="center"><b>Simptom</b></p> <p>Tarbiya metodlari bu -</p>	<p align="center"><b>Muammoli topshiriq</b></p> <p>1-sinfga kelgan 30 nafar o'quvchiga o'qituvchi hayoti, tartib-intizom, tozalikka rioya qilish haqida so'zlab berardi. Barcha o'quvchilar qo'llarini parta ustiga qo'yib, diqqat bilan o'qituvchini tinglar edi. Shu payt o'qituvchi oldingi partada o'tirgan Nodirning qulog'i kirligini, maktabga bunday holda kelish mumkin emasligini aytdi. Bu gapdan so'ng Nodir qizarib ketdi va ko'ziga yosh keldi. Tanaffusda hech kim uni o'z davrasiga qo'shmadi. A. O'qituvchining bu harakatini qanday baholaysiz? B. Shunday vaziyatda Siz qanday yo'l tutasiz?</p>
<p align="center"><b>Xulosa:</b></p> <p>Sizningcha, shaxsning shakllanishida tarbiya metodlarining o'rnini...</p>	

## Venn Diagrammasi

(ingliz faylasufi Jon Venna nomi bilan atalgan)

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning tahlil va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

o'quvchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

navbatdagi bosqichda o'quvchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yoxud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### **Namuna**



### «Xulosalash» metodi

**Metodning maqsadi:** Bu interfaol metod murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli xarakterdagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bu metod umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatna-shuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

Bu interfaol metod mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

mashg'ulot boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur faxmlash va anglab yetish;

yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar: aspekt bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi; afzallik – biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz; fazilat – ijobiy sifat; nuqson – nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik; xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish; ta'limdan tashqari «Xulosalash» metodi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi, ya'ni jamoa, guruhlarda ishlash mahorati; muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati; murosali qarorlarni topa olish mahorati; o'zgarlar fikriga hurmat; xushmuomalalik; ishga ijodiy yondashish; faollik; muammoga diqqatini jamlab olish mahoratini shakllantiradi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

trener-o'qituvchi o'quvchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;

trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan o'quvchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoning tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;

navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng o'qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Taklif etilayotgan yangi model

Pedagogik texnologiyalarning ijobiyligi nimada?	Nima uchun hamma vaqt pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin emas?	Sizga tanish bo'lgan pedagogik texnologiyalarga munosabatingiz...	<i>Xulosa</i>

### “Akvarium” metodi

Bu ta'lim oluvchilarga muammoni “jamoat oldida” muhokama etish taklif etiladigan dialog shakli. Guruh muammo bo'yicha u yoki bu dialogni olib borish uchun ishongan ishtirokchini tanlaydi. Ba'zida bu bir nechta xohlovchilar bo'lishi mumkin. Qolgan barcha ta'lim oluvchilar tomoshabin rovida qatnashadilar. «Akvarium» deb nomlanishi ham shundan kelib chiqqan. Bu usul o'z tengdoshlarini chetdan ko'rish, ular qanday muomalada bo'lishlarini ko'rish, o'zgaralar fikriga qanday munosabat bildirayotganliklari, yuzaga kelayotgan kelishmovchiliklarni bartaraf eta olayotganliklari, o'z fikrlarini qanday tushuntirayotganliklari va hokazolarni baholashga imkon beradi.

Ish quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi: o'quvchilar guruhi ikkita aylana hosil qilib joylashadilar: ichki va tashqi. Ichki aylananing bir

ishtirokchisi o'tilgan biror aniq tarbiyaviy masala bo'yicha yetakchi (o'qituvchi yoki xabarchi) rovida chiqadi.

Tashqi aylana ishtirokchilari ichki aylananing yetakchisi va guruhining harakatini diqqat bilan kuzatadilar va ijobiy holatlar, muvaffaqiyatlar hamda kamchiliklar to'g'risidagi o'z taassurotlarini yozib boradilar. So'ngra ishtirokchilar o'z hamkasblarining harakatlarini muhokama qiladilar, undan so'ng o'z-o'zini baholash uchun ichki aylananing yetakchisi va a'zolariga so'z navbati beriladi. Muhokama yakunlariga ko'ra xulosalar chiqariladi.

### «Blits-o'yin» metodi

**Metodning maqsadi:** o'quvchilarda tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

“Blits-o'yin” metodini o'tkazish bosqichlari.

O'qituvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazishning quyidagi tartibi bilan tanishtiradi:

1. Dastlab, o'quvchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng o'quvchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» ustuniga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolariga o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikriga ishonitirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi va o'quvchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. «To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlar bilan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo'lsa «0», mos kelsa «1» ball qo'yish so'raladi. Shundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi

farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. O'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. O'quvchilarning olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### «Men bo'lajak o'qituvchi» mavzusidagi «Blits-o'yin» namunasi

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Pedagog maqsadlarining belgilanishi			3		
O'quvchilar uchun mashg'ulot maqsadlarining belgilanishi			2		
Mavzuning tanlanishi			1		
O'qitish mazmunining belgilanishi			4		
Yangi material bayoni			6		
O'qitish metodlarning tanlanishi			5		
Mustahamlash va baholash			7		
Natijali - refleksiya			9		
Uyga vazifa berish			8		

4-5 – to'g'ri javob – qoniqarli; 6-7 – to'g'ri javob – yaxshi; 8-9 – to'g'ri javob – a'lo tartibida baholanadi.

### 6-3-5 metodi

Bu metodning afzalligi shundaki, qisqa vaqt mobaynida 6 ishtirokchi 90 ga yaqin g'oyani o'rtga tashlaydi. Hammasi juda oddiy: 6 - bu ishtirokchilar soni, 3 - g'oya, 5 - o'ylash uchun berilgan daqiqani anglatadi. Ishtirokchilarning teng huquqqa ega ekanliklari ularning bir xil faolligi va teng imkoniyatlari borligini nazarda tutadi. Bu metodda bahs-munozaralarga vaqt ajratilmaydi va bitta norasmiy yetakchining qolgan ishtirokchilarga ta'siri bekor qilinadi. Boshqa ishtirokchilarning g'oyalari har bir ishtirokchi yangi g'oyalarning tug'ilishiga o'ziga xos rag'batlantirish bo'lib xizmat qilishi mumkin. Metodning o'ziga xosligi mana shunda.

**Maqsad:** belgilangan mavzuda iloji boricha ko'proq miqdorda g'oyalarni kiritish, yozib qo'yish va tizimlashtirishga yordam beradi. O'quvchilarda jamoada ishlash ko'nikmasini, o'zaro hamjihatlik, bir-biriga hurmat tuyg'usini tarbiyalaydi.

**Vaqt:** butun ishga 30 daqiqa va oraliq bosqichlarga 5 daqiqadan vaqt beriladi.

**Qatnashchilar:** 6 kishidan iborat kichik guruhlar.

**Metodni o'tkazish tartibi:**

- 6 ishtirokchidan har biri qog'oz va ruchka oladi, guruh aylana stol atrofiga o'tiradi;

- 5 daqiqa ichida muhokama qilinayotgan mavzu bo'yicha o'zining uchta g'oyasini qog'ozda bayon etishi zarur;

- chap tarafdagi ishtirokchiga g'oyalar ifodalangan qog'oz berilishi lozim;

- o'ng tarafdagi ishtirokchidan g'oyalar ifodalangan qog'ozni olib o'qigandan so'ng, ishtirokchi bayon etilgan voqealarni rivojlantirishi va o'zining yangi g'oyalarni yozishi kerak, bunday harakat hamma varaqlar to'lguniga qadar davom etaveradi;

- g'oya izlash har bir ishtirokchi o'zining dastlabki bajargan ishini olganidan keyingina to'xtatiladi.

Nihoyat xulosada hamma g'oyalar o'qilib, baholanadi. Keyinchalik ularni turlarga ajratish, ustuvorlarini aniqlash mumkin bo'ladi va hakazo..

Albatta, bunda vazifalarni bajarishda qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. Eng muhimi, diqqat-e'tiborni bir joyga jamlash va tinchlikni saqlash hamda shartlarni jiddiy bajarishdir. Ba'zan g'oyalar tushunarsiz ifodalanishi yoki bir-birini takrorlashi mumkin, qatnashuvchilar dastlab hayajonlanib o'zlarini yo'qotib qo'yishlari va g'oyalarni har xil "tezlikda" yetkazishlari mumkin. Bunda ba'zi bir qiyinchiliklar hamma kelib tushgan g'oyalarni to'liq jamlab, qayd etish bilan yakunlanadi.

### **«Beshinchisi ortiqcha» texnikasi**

**Maqsad** - bir mavzuga oid tushunchalarni qiyoslash, tahlil qilish va umumlashtirish.

**O'tkazish tartibi:**

o'quvchilarga 5 ta tushuncha beriladi ya'ni mazkur tushunchalarning 4 tasi bir mavzu doirasida, 1 tasi mavzudan tashqari holatda tanlanadi;

o'quvchi mavjud qatordagi tushunchalardan qaysi biri ortiqcha ekanligini topib, fikrini asoslab berishi lozim bo'ladi.


**1-misol:** suhbat, ibrat-namuna, tushuntirish, hikoya, bahs-munozara

**Topshiriq:** mazkur qatordagi so'zlardan qaysi biri ortiqcha va nima uchun?

**Javob:** mazkur qator uchun ibrat-namuna tushunchasi ortiqcha, chunki bu tarbiya metodlaridan biri bo'lib, qatorda ko'rsatilgan boshqa tushunchalar bir turkumga, ya'ni ta'limning og'zaki metodiga taalluqli.

## 2-slayd

### «Beshinchisi ortiqcha» metodi



**Topshiriq:** mazkur qatordagi so'zlardan qaysi biri shu qator uchun ortiqcha va nima uchun?

### "Panorama" treningi

**Trening maqsadi:** mashg'ulot o'quvchilarni aniq bir muammoni yakka (yoki kichik jamoa bo'lib) fikr yuritib hal etish, yechimini topish, ko'p fikrlardan zarurini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, o'z fikrlarini ma'qullay olishga o'rgatadi.

**Treningdan kutiladigan natija:** o'quvchilar erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga; jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga; fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga o'z fikrini o'tkazishga, uni ma'qullashga; qo'yilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzular bo'yicha egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rganadilar.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:** Tarbiyachi mashg'ulotni yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi taxdidlar, xatarlar: xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm, giyohvand moddalar tajovuzi, OITS, egotsentrizm, axloqsizlik falsafasi, "Dunyo fuqarolari" - kosmopolitizm

va ularga nimalarni qarshi qo'yish: farzandlarni asrash, hushyorlik, yoshlarni g'oyaviy qurollantirish, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, tahdidlar mohiyatini oddiy so'zlar, hayotiy misollar bilan tushuntirish, millat kelajagi uchun mas'uliyatni shakllantirish, iroda, e'tiqodni mustahkamlash, ongli yashashga o'rgatish, axborot tajovuzi mohiyatini ochib berish, nikohni mustahkamlash kerakligi haqida ma'lumot berishdan boshlaydi. Tarbiyachi mashg'ulotning asosiy mavzusi bo'yicha yo'naltiruvchi so'zida, hozirgi kunda yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga katta e'tibor qaratilayotgani, chunki mafkuraviy immunitet - begona, zararli g'oyalarni, mafkuralar bilan to'qnash kelganda, unga nisbatan o'z munosabatini bildira olish, unga qarshi kurashishga g'oyaviy, ma'nan tayyor bo'lish imkoniyati ekanligi, har bir odam, avvalo, har bir yosh o'zining mustaqil fikriga ega bo'lmaguncha bunday immunitetni shakllantirib bo'lmazligi haqida fikr bildiradi va shu sababdan bugungi tarbiyaviy mashg'ulotning mazmunini "Zamonning global muammolari" mavzusi orqali yoritish zarurligini tushuntiradi.

Tarbiyachi kirish so'zidan so'ng, o'quvchilarning umumiy soniga qarab 3 kishidan iborat kichik guruhlar ajratadi (kichik guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo'lgani maqsadga muvofiq). So'ngra u o'quvchilarga mashg'ulotning maqsadi uni o'tkazilish tartibini tushuntiradi. Har bir kichik guruhga avvaldan tayyorlangan tarqatma materiallarni tarqatadi. Tarbiyachi kichik guruh a'zolarini tarqatma materialda berilgan jadvalda yozilgan asosiy fikr "Hozirgi zamon global muammolari" mavzusiga kiritilgan global muammolar bilan tanishib chiqish va ulardan bittasini tanlashni talab etadi. Tanlagan muammolari bo'yicha ajratilgan bo'limga o'z fikr-fazalarini birgalikda yozma bayon etishlarini so'raydi, uni bajarishga mo'ljallangan vaqtni belgilaydi. Guruhlar vazifani bajarishga kirishadilar. Vazifa bajarilgach, tarbiyachi guruhlardagi tarqatma materiallarni guruhlararo almashtiradi. Masalan. guruhlar soni 4 ta bo'lsa, u holda 1-guruh materialini 2-guruhga, 2 - guruh materialini, 3-guruhga, 3-guruh materialini 4 - guruhga, 4 - guruhnikini esa 1 - guruh beradi va qaytadan vaqt belgilaydi. Guruh a'zolari stollariga kelib tushgan varaqdagi global muammolardan yozilmay qolganidan birini tanlab unga o'z fikrlarini yozadilar. Vazifa bajarilgach, tarbiyachi tarqatma materiallarni yana guruhlararo almashtiradi, shu tariqa tarqatma materiallari birinchi bo'lib yozishni boshlagan guruhga kelib tushmaguncha tarbiyachi ularni guruhlar

o'rtasida almashtirib turadi, guruhlar esa har bir tarqatma materialdagi tanlanmay qolgan bo'limlarni tugatib, o'z fikrlarini yozib boradilar.

Tarqatma materiallar o'z guruhlariga qaytgach, guruh a'zolari tarqatma materialda to'plangan barcha fikrlarni diqqat bilan o'qib, ularni umumlashtirgan holda, umumiy bir fikrga keladi va guruh vakillaridan birini ushbu fikrni taqdimot qilish uchun tayyorlaydilar. Tarbiyachi guruhlardan taqdimot vaqtida, ayniqsa, uning yechimi va unga qarshi qo'yishi mumkin bo'lgan fikrlar, tadbirlar, ishlar, uslubiyotlarga e'tiborlarini ko'proq qaratishlarini so'raydi. Taqdimot uchun vaqt belgilanadi. Takdimot vaqtida boshqa guruh a'zolari bildirilgan fikrlarga qo'shimcha qilishlari, ya'ni to'ldirishlari mumkin. Tarbiyachi taqdimotning samarali va tartibi bo'lishini ta'minlaydi.

Taqdimot tugagach, tarbiyachi "Zamonaning global muammolari" mavzusi bo'yicha fikrlarni umumlashtiradi, ularning isboti sifati videomaterial (imkoniyati bo'lsa) yoki fotosuratlar ko'rsatishi mumkin. Tarbiyachi mashg'ulotni o'quvchilarning, guruhlarning ishlariga baho berish, mashg'ulot haqida o'quvchilarning bildirgan fikrlarini aniqlash, bo'sh vaqtlarida mustaqil o'qishlari uchun badiiy-ommabop adabiyotlar, tomosha qilishlari uchun esa filmlarni ro'yxatini aytish yoki tarqatish bilan yakunlaydi.

**Izoh:** Kichik guruhlar soni 4 ta bo'lgani maqsadga muvofiq. Bunday holda, tarqatma materiallar 3 marta almashtiriladi va bu bilan o'quv jarayonini zerikarli o'tishining oldi olinadi. Agar kichik guruhlar soni 4 tadan ko'p bo'lsa, u holda ularni ikkita potokka bo'lib, tarqatma materiallar almashinuvini har bitta potok o'rtasida alohida, taqdimotni esa birgalikda o'tkazish mumkin.

«Zamonaning global muammolari» mavzusidagi «Panorama» treningi uchun mo'ljallangan tarqatma materialning taxminiy nusxasi quyida keltirilgan:

Muammolar	Yuzaga kelish sabablari	Salbiy oqibatlari	Hal etish yo'llari	Nimalarni qarshi qo'yish kerak?	
Giyohvandlik					
Terrorchilik					
Ekologik tanglik					
OITS					
Diniy ekstremizm					
Missionerlik					

**Izoh:** tarqatma materialda berilgan global muammolar tarkibini har bir tarbiyachi uning shu kundagi dolzarblik darajasi, o'quvchilar guruhining imkoniyatlari, saviyasi va mashg'ulot uchun ajratilgan vaqtga tanlashi mumkin.

### **Ikki qismli kundalik metodi**

**Metodning maqsadi** – mazkur metod nafaqat matnning mazmunini o'rganishga, balki matn mazmunini o'zining shaxsiy tajribasi bilan bog'lashga va o'zlashtirgan axborot, g'oya yoki fikrlarga nisbatan o'z munosabatini yozma ifoda etishga imkon beruvchi oddiy va samarali usul bo'lib, o'quvchilardagi shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi.

#### **Metodni o'tkazish tartibi:**

*1-qadam.* Ish daftari vertikal chiziq bo'yicha ikkiga bo'linadi.

*2-qadam.* Chap tomonga o'quvchi mavzu yuzasidan unda taassurot uyg'otgan, yoqqan yoki savol tug'dirgan sitata, g'oya yoki fikrlarini



yozadi (masalan, juda aqlli ta'rif yoki xato tuyulishi, yoki ma'lumotning bir qismi dalil yoki sabab va boshqalar).

**3-qadam.** O'ng tomonda o'quvchi keltirilgan sitata yoki fikrga o'zining sharhlarini yozadi, ya'ni o'z munosabatini quyidagi yo'nalishlarda bildiradi. Uni bu fikr yoki g'oyaning nimasi qiziqtdirdi va yozib olishga undadi? Bu nima haqda o'ylashga majbur etdi? Bu fikr bo'yicha u qanday savollarni o'yladi?

**4-qadam.** Matnni o'qiyotganida o'quvchi kerakli qo'shimcha fikrlarni aniqlab, kundalikka yozib boradi.

**5-qadam.** Ish yakunlangandan so'ng o'quvchilar juftliklarda ishlashlari, tahlillarini almashishlari, o'rtoqlari tahlilida ularga yoqqan fikrni muhokama etishlari va ko'rsatishlari mumkin.

### O'qituvchiga tavsiyalar

Siz oldindan sitatalar yoki g'oyalar sonini belgilab olishingiz mumkin (misol uchun, 2 ta, 4 yoki 5 tadan), - sitatalar mazmuni va yo'nalishi mutaxassislik, fan yoki mavzuga mos bo'lishi kerak.

Agarda siz ijtimoiy-tarbiyaviy mavzuda bu treningni o'tkazmoqchi bo'lsangiz g'oyalar yoki sitatalar hayotiy-ijtimoiy mavzularda tanlanishi mumkin bo'ladi. Bularning barchasi siz o'z oldingizga qo'yan maqsadga va sizning pedagogik uslubingizga bog'liq bo'ladi.

### Namuna:

<b>Sitata</b>	<b>Sharh</b>
«Ertangi kuning bilan maqtanma, chunki u nimalarni taqdim etishini bilmaysan» (Hazrat Sulaymon).	Bu fikr insonga bugungi holati, amali va ishlari bilan xulosa chiqarish zarurligini, ertangi bajarilmagan ishlar uchun havolanmaslikni o'rgatadi.
O'tgan kun haqidagi: «Men uni qanday o'tkazdim, nimalar qildim-u, nimaga ulgurolmadim?» degan savolga javob topilmaguncha ko'zlarining uyquga ketmasin (Pifagor).	Hayotga, vaqtga falsafiy nuqtai - nazardan qarashdek aqliy holatga faqatgina yuksak ma'naviylik, axloqiylikka erishilgandagina imkon yaratilgan bo'ladi. Inson qachonki o'z harakatlari va ishlarining tahlilini, xulosasini chiqarib, o'ziga, faoliyatiga nisbatan refleksiv yondosha olsagina u rivojlanishga, o'sishga erisha oladi.

Ish shakllari:

- \* Uchliklarda ishlash;
- \* Kichik guruhlarda ishlash;
- \* Blits-so'rov – siz bir qator o'quvchilardan faqat bitta sita-tani va faqat birgina sharhni o'qib berishni so'raysiz;
- \* Fidbeyk.

Yakunlar munozara tayyorlash yoki o'tkazish, insho yozish yoki asoslangan esse yozish uchun xizmat qilishi mumkin.

### **“Yumaloqlangan qor” uslubi**

Bu uslub har qanday tushuncha mumkin qadar aniqroq ta'rif topishga imkon beradi, talabalarga guruhlarda ishlashni, boshqalar fikriga quloq solishni va umumiy nuqtai nazarni ishlab chiqishni o'rgatadi.

Bu uslub bosqichma-bosqich hamda har bir bosqichga aniq vaqt belgilanishi bilan o'tkaziladi.

1-bosqich. Har bir qatnashchi 2 daqiqa mustaqil ishlaydi.

2-bosqich. Juftliklarda ishlash – uchliklarda ishlash – 5 daqiqa.

3-bosqich. To'rtliklarda ishlash – oltiliklarda ishlash – 5 daqiqa.

4-bosqich. Sakkizliklarda ishlash-5 daqiqa.

5-bosqich-5 daqiqa muhokama.

Guruhlardagi ish tugashiga ko'ra har bir guruh vakillari navbati bilan o'z plakatlarini xona taxtasiga ilib qo'yadilar va uni o'qiydilar. Agar savollar bo'lsa, guruh javob beradi.

O'qituvchi barcha guruhlar ishtiroklaridagi umumiylikni topishga yordam beradi.

### **“T – SXEMA” METODI**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod biror tushuncha yoki mavzu bo'yicha o'rganilgan axborotlar tizimini qiyosiy tahlil etish, solishtirish, mustaqil munosabatni shakllantirishga imkoniyat yaratish maqsadida qo'llaniladi.

- \* bunda ta'lim oluvchi shaxsidagi;
- \* mustaqil va ijodiy fikrlash;
- \* axborotlar tizimini tahlil etish;
- \* o'z pozitsiyasida qat'iy turish;
- \* o'z-o'zini nazorat qilish va baholash;

- \* muloqotchanlik va o'zgarlar fikriga hurmat;
- \* jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

O'qituvchi o'quvchilarni miqdor jihatdan teng gurhlarga ajratadi.

O'quvchilarni trening o'tkazishga qo'yilgan talablar va bajarilishi zarur bo'lgan topshiriq shartlari bilan tanishtiradi.

Tarqatmalar (ilovadagi) o'quvchilar guruhiga beriladi va taklif etilgan sxema asosida qatnashchilar tushunchaga yoki muammoga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;

Bildirilgan fikrlar ijobiy va salbiy yo'nalishga ajratilib, kerakli ustunchalarga yoziladi.

Belgilangan vaqt (10-15 daqiqa) yakuniga yetgach, barcha guruhlarning fasilitatorlari yordamida prezentatsiya tashkil etiladi.

Barcha guruhlarning yakuniy xulosalari o'qib eshittirilganidan so'ng, trener-o'qituvchi guruhlar ishini baholaydi va qo'shimcha to'ldirishlarni kiritadi.

**Kutiladigan natija:** O'quvchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, mustahkamlaydi, mavzuning mohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi va shaxsiy munosabati shakllanadi.

**Sinf-dars tizimining o'ziga xos xususiyatlari**

Ijobiy tomonlari	Kamchiliklari
X U L O S A	

## Qadriyatlarining tarbiyada tutgan o'ri

To'siqlari	Yutuqlari

### «Ta'lim mazmuni» mavzusi yuzasidan «Charxpalak» texnologiyasi o'tkazish bo'yicha mashg'ulot ishlanmasi.

**Metodning maqsadi:** mazkur texnologiya ta'lim oluvchilarda muayyan mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan axborotlarni mustahkamlash, analiz-sintez qilish, baholash va mustaqil-ijodiy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiya mavzuga mos ravishda uy vazifalarini takrorlashda, baholashda va nazorat ishlarida foydalanishda maqsadga muvofiq.

#### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

**1-bosqich.** Talabalar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadi va ularga aniq mavzu bo'yicha tayyorlangan tarqatma materiallar tarqatiladi;

**2-bosqich.** Berilgan harakat xususiyatlari ichidan o'zlari to'g'ri deb topgan harakatni ko'rsatilgan kataklar ichiga maxsus belgilar (+, -, X, Y) bilan belgilash tushuntiriladi;

**3-bosqich.** Har bir guruh a'zosi individual tarzda ko'rsatilgan kataklarga o'z javoblarini belgilaydi va o'qituvchi navbatdagi bosqichda guruhlarining javoblar varaqasini soat strelkasi tartibida almashtiradi;

**4-bosqich.** Bu harakat to'g'ri har bir guruhning dastlabki ishi o'ziga qaytib kelguniga qadar takrorlanadi. Tarqatma materiallar o'z egalariga yetib kelganidan so'ng o'qituvchi to'g'ri javoblarni o'qib eshittiradi.

**5-bosqich.** Talabalar to'g'ri javoblarni dastlabki belgilari bo'yicha tekshirib, har bir to'g'ri javobni «1» ball bilan baholaydilar.

**6-bosqich.** Trening yakunida o'qituvchi baholash mezonini o'qib eshittiradi va har bir talaba o'z-o'zini baholaydi. (Masalan, harakatlar 14 ta bo'lsa, bunda: 14-16 to'g'ri javob uchun «a'lo», 11-13 ta to'g'ri javob uchun «yaxshi», 8-10 ta to'g'ri javob uchun «qoniqarli» baho beriladi.)

O'qituvchi baholarga aniqlik kiritadi va mashg'ulotning zaruriy jihatlarini umumlashtirib, xulosalaydi.

**“Ta’lim mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlar” mavzusida tuzilgan “Chaxpalak “ texnologiyasi namunasi**

	<b>Ta’lim mazmunini belgilovchi me’yoriy hujjatlarning o’ziga xos hususiyatlari</b>	<b>O’quv reja</b>	<b>O’quv dasturi</b>	<b>Darslik</b>
	O’quv – tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanganlik			
	Fikrlarning aniq va qisqa bo’lishi			
	O’quv fani uchun tuzilgan me’yoriy hujjat			
	So’zsiz amal qilinishi lozim bo’lgan davlat hujjati			
	O’quv jarayonining zaruriy qismi			
	Bilimlar hajmi, tizimi va g’oyaviy-siyosiy yo’nalishining belgilanishi			
	Fanlar va soatlar miqdori			
	Mavzular bayoni			
	O’quv fanining mazmuni			
	O’quv yilining tuzilishini belgilab borilishi			
	O’zlashtirilishi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning ifodasi			
	Ketma-ket va konsentrik joylashuv			

**Ilova:**

6-8 ta to'g'ri javob uchun «qoniqarli»

9-10 ta to'g'ri javob uchun «yaxshi»,

11-12 ta to'g'ri javob uchun «a'lo» tartibida baholanadi.

## 1. «O'qitish metodlari» mavzusi yuzasidan «Zinama - zina» texnologiyasidan foydalanish bo'yicha mashg'ulot ishlanmasi

2.

**Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu mashg'ulot talabalarni o'tilgan o'qitish metodlari mavzusi bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya talabalar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.

**Texnologiyaning maqsadi.** Talabalarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek, o'qitish metodlari mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

**Texnologiyaning qo'llanishi:** ma'ruza (imkoniyat va sharoit bo'lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida qo'llanilishi mumkin.

**Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar:** A-3, A-4 formatli qog'ozlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster (yoki rangli qalam)lar.

### **Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

o'qituvchi talabalarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo'lgani ma'qul);

talabalar mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi;

o'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib, yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;

guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (rasm yoki chizma) ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda

guruh, a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi;

tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya (sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) jilnadi;

o'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

**Izoh:** o'quv mashg'ulotining bunday tashkil etilishi talabalarni mustaqil fikrlashga, o'tilgan va o'zlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma (yoki rasm, chizma ko'rinishida) bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga o'rgatadi.

### Ilova (misol tariqasida)

Tar. №	Mavzu	An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari tasnifi
1	Og'zaki	
2	Ko'rgazmali	
3	Amaliy	
4	Kitob bilan ishlash	
5	Videometod	

#### **Mavzular:**

1. An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va bosh.)

2. O'quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi (I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin).

3. Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi (M.A.Danilov va B.P.Yesipov).

4. Ta'limning binar metodlari (M.I.Maxmutov).

5. Yaxlit yondashuv bo'yicha ta'lim metodlari tasnifi (Yu.K.Babanskiy).

6. Ta'limning interfaol metodlari.

## An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari tasnifi



Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Videometod
Hikoya Subbat Tushuntirish Ma'ruza Munozara	Illyustratsiya Demonstratsiya	Mashq Amaliy Laboratoriya Didaktik o'yin	O'qish O'rganish Reja tuzish Konspekt qilish	Ko'rish O'rganish Nazorat qilish

## O'quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi



Ta'lim metodi	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
<b>Axborot-retseptiv</b>	O'quv axborotini uzatish, o'rganilayotgan ob'ekt bilan o'quvchi harakatini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash.
<b>Reproduktiv</b>	Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etish	Namuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini egallash.
<b>Muammoli bayon etish</b>	Muammoni qo'yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o'z-o'zini nazorat qilish



<b>Evristik (qisman izlanish)</b>	Muammoni qo'yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma-ketligini rejalashtirish. O'quvchilar faoliyatini boshqarish	Qo'yilgan vazifa bilan bog'liqlikda muammoni hal etish yo'llarini mustaqil izlash va o'qituvchining qisman ko'magi yordamida muammoni hal etish
<b>Tadqiqotchilikka doir</b>	Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoning hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish.

**Asosiy didaktik maqsadlarga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi:**

- yangi bilimlarni egallash metodlari;
- ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- bilimlarni amaliyotda qo'llash metodlari;
- bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.

## Ta'limning binar (juft) metodlari



<b>O'rgatish metodlari</b>	<b>O'rganish metodlari</b>
Axborot-ma'lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko'rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli-undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

## Yaxlit yondashuvga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi



- O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
- O'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlari.
- O'quv-bilish faoliyatini nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

## O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari



O'quv axborotini uzatish va idrok etish manbasiga ko'ra	O'quv axborotini uzatish va idrok etish mantig'iga ko'ra	O'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasiga ko'ra	O'quv ishini boshqarish tavsifi bo'yicha
Og'zaki Ko'rgazmali Amaliy	Induktiv Deduktiv	Reproduktiv. Produktiv: muammoli, muammoli- izlanishli, evristik	O'qituvchi rahbarligida bajariladigan o'quv ishi. O'quvchilarning mustaqil ishlari.

## O'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlari



O'qishga qiziqishni motivatsiyalash metodlari	O'qishga burch va mas'uliyatni rag'batlantirish metodlari
Bilish faoliyatini tashkil etishga doir o'yinlar. O'quv munozaralar. Vaziyatlarni yaratish.	O'rganishning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatiga ishonch hosil qilish. Talab qo'yish. Rag'batlantirish. Ogohlantirish.

## O'quv-bilish faoliyatini nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari



Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishning og'zaki metodlari	Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishning yozma metodlari	Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishning amaliy metodlari
Individual so'rov, ommaviy so'rov, dasturlashtirilgan so'rov, og'zaki o'z-o'zini nazorat ishi	Yozma nazorat ishi, dasturlashtirilgan yozma ish, yozma o'z-o'zini nazorat ishi	Laboratoriya ishi, laboratoriyali o'z-o'zini nazorat ishi

## Interfaol metodlar



<b>O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari</b>	<b>Yangi materialni anglash metodlari</b>	<b>O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar</b>
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Konseptual jadval. Venn diagrammasi. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse.

**“Ta’lim metodlari”  
mavzusidagi konseptual jadval**

<b>Metodning mazmuni</b>	<b>Belgilari</b>	<b>Ta’rifi</b>	<b>Funksiyasi</b>	<b>Qoidalari</b>	<b>Izoh</b>
<b>An’anaviy metodlar</b>					
<b>Bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari</b>					
<b>Didaktik maqsadiga ko‘ra ta’lim metodlari</b>					

**«Pedagogik innovatsiya» mavzusi yuzasidan «FSMU» metodini o'tkazish bo'yicha mashg'ulot ishlanmasi.**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod talabalardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

Talabalarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

Har bir talabaga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringizni bayoniga sabab ko'rsating.

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

Har bir talaba yakka tartibda tarqatilgan qog'ozlardagi FSMU ning to'rt bosqichini taklif etilgan xulosa yoki g'oyaga nisbatan o'z mustaqil mulohazalari bo'yicha yozma bayon etgan holda to'ldiradi;

Navbatdagi bosqichlarda talabalar kichik guruhlariga bo'linadilar va har bir tinglovchi o'zi yozgan FSMU bilan guruh a'zolarini tanishtiradi;

Guruh a'zolari barcha fikrlarni o'rganib, ularni umumlashtiradilar va o'z taqdimotlarini o'tkazadilar;

O'qituvchi tomonidan barcha taqdimotlar umumlashtiriladi, kerakli xulosalar shakllantiriladi va trening yakunlanadi.

Masalan, «Suv hayot manbaidir», «Matematika - aql gimnastikasi», «Jangovor tayyorgarlik - g'alaba asosi», «Insonparvarlik pedagogikaning asosidir», «Innovatsion texnologiyalar ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi» kabi mavzularda «FSMU» o'tkazish mumkin.

**Namuna:**

**Innovatsion texnologiyalar ta'lim-tarbiya samaradorligini oshiradi.**

F - ha, albatta

S - chunki, innovatsion ta'lim texnologiyalar orqali pedagogik jarayonning tashkil etilishi o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi

faoliyatini oshiradi, bunday faoliyat bilimlarni tez, samarali va qulay o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

**M-Aqliy hujum, Klaster, Bumerang, Sinkveyn, ishbilarmon o'yinlar orqali o'qitishni tashkil etish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, bilish faolligi va ijodiy ko'nikmalarini shakllantiradi.**

**U-Haqiqatdan ham ta'lim-tarbiya mazmunini modernizatsiyalash jarayonida innovatsion o'qitish texnologiyalari muhim omil sanaladi.**

**FSMU: «Bo'lajak kasbingiz faoliyatida innovatsiyalarni yaratish, qo'llash va tatbiq etishga tayyormisiz?»**

<b>FIKR</b> ingizni bayon eting:	...
Fikringizning bayoniga <b>SABAB</b> ko'rsating:	...
Fikringizni isbotlashga <b>MISOL</b> keltiring:	...
Fikringizni umumlashtiring	

**«Tarbiya jarayoni mohiyati» mavzusi yuzasidan "Pedagogikada"  
trening o'tkazish bo'yicha mashg'ulot ishlanmasi**

**Trening maqsadi:** o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda, o'quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma'qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishga, mavzuga umumiy tushuncha berishga, shuningdek, o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

**Treningdan kutiladigan natija:** o'quvchilar bir yo'la mavzuning tarmoqlari bo'yicha axborot oladilar, taqqoslash orqali muammolarni yechimini topishga, ayni paytda berilgan mavzuning har birini alohida nuqtalarda muhokama qilishda, ya'ni uning ijobiy va salbiy tomonlar afzallik va kamchiliklarini, foyda va zararlarini aniqlashda o'z fikrlari orqali boshqalarga ta'sir etishga o'rganadilar.

**Mashg'ulotning o'tkazish tartibi.** Mashg'ulot o'quvchilarni 5 ta stol atrofiga bir xil sonda joylashtirishdan boshlanadi. Tarbiyachi mashg'ulot o'tkazish tartibi bilan o'quvchilarni tanishtiradi va mashg'ulot mavzusidan kelib chiqqan holda, asrlar davomida insonlarning ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanganligi, har bir davrdagi tarbiya o'zining uslubiyotlari, tamoyil mazmuniga ega bo'lganligi, lekin har bir davr tarbiyasining o'ziga xos ijobiy, salbiy jihatlari bo'lganligi haqida qisqacha ma'lumot beradi. So'ngra avvaldan tayyorlab qo'yilgan tarqatma materiallarni guruhlariga tarqatadi, tartibini tushuntiradi, vaqtni belgilaydi va kerakli ko'rsatmalarni beradi.

Tarqatma materiallarning har biriga quyidagi mavzulardan biri yoziladi:

- feodallik tuzumi davridagi tarbiya;
- kapitalistik tuzum davridagi tarbiya;
- sovetlar tuzumi davridagi tarbiya;
- mustaqillik davridagi tarbiya.

Tarbiyachi har bir guruh a'zolaridan tarqatma materiallarga yozilgan mavzularni birgalikda fikrlashib, shu haqida bilganlarini yodga olib berilgan mavzuni o'sha davrga nisbatan ijobiy va salbiy tomonlarini



aniqlashlarini va guruh fikrini tarqatma materialga yozishlarini so'raydi. Bu ish uchun guruhlarning umumiy saviyasini hisobga olgan holda vaqt ajratiladi. Guruhlar berilgan vazifani bajarishgach, navbatma-navbat uni taqdimot qilishni boshlaydilar.

Taqdimot vaqtida guruh vakili o'z mavzulari bo'yicha yozilgan ma'lumotni iloji boricha izoh bermagan holda barchaga o'qib eshittiradi. Qolgan guruh a'zolari berilayotgan ma'lumotni diqqat bilan tinglab, to'ldirishlari yoki savol bilan murojaat qilishlari mumkin. Bir guruhlar taqdimoti tugagach, tarbiyachi berilgan ma'lumotlar asosida ular umumlashtiriladi, qo'shimchalar qilgan holda mavzuga yakun yasaydi o'quvchilarni ushbu mashg'ulotdan nimalarni o'rganganliklari, nimalarni bilib olganliklari va yana nimalar ularni qiziqtirishini aniqlaydi.

#### Tarqatma materialning taxminiy namunasi

PEDAGOGIKADA	
Kapitalistik tuzum davrida tarbiya	
Ijobiy tomoni	Salbiy tomoni

## **“JII – jamoaviy ijodiy ish” treningining tashkil etilishi va mazmuni**

### **Trening maqsadi:**

o‘quvchilarda ijodiy faoliyat malakalarini shakllantirish; jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil qilishning turli shakllarini o‘rgatish; auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Kutilgan natija:** trening jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarga jamoaviy ijodiy ishni tayyorlash va o‘tkazish uslublari, o‘qituvchilarni bunday ijodiy ishlarga jalb etish yo‘llarini o‘rganadilar.

### **Trening tafsiloti:** Tashkiliy bosqich (15 daqiqa).

Trening avvalida o‘qituvchi qatnashchilar bilan “Jamoaviy ijodiy ishni tashkil qilish” mavzusida suhbat uyushtiradi. Keyin u guruhga qarata shunday deydi: “Faraz qiling siz o‘z kollejingiz haqida uni bilmaydigan kishilarga gapirib berishingiz kerak. Suhbatingiz kollejingiz va uning faoliyatini eng muhim va qiziqarli jihatlarini qamrab olsin, toki suhbatdoshingizda shu kollejdagi o‘qish yoki ishlash, ko‘rish xohishi uyg‘onsin. Buning uchun avvalo suhbatni mantiqiy ketma-ketligi, ya‘ni rejasini tuzib olasiz, shundaymi? Shunday ekan, keling hikoyamizni nimadan boshlash kerak, degan savollarga javob topamiz”. Trener bu ko‘rsatmadan so‘ng “Aqliy xujum metodi yordamida o‘quvchilar tomonidan aytilgan barcha fikr, mulohaza, g‘oyalarni vatman yoki doskaga yozib boradi. Birgalikdagi muhokamadan so‘ng trening qatnashchilari kollej to‘g‘risidagi taqdimotning yagona reja-loyahasini tasdiqlaydilar. Trener guruhga ushbu taqdimot bir necha yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab olishi, buning uchun har bir yo‘nalishga alohida nom berishni taklif etadi.

### **2- bosqich.** Ijodiy ish.

Ishning keyingi bosqichini boshlash uchun o‘quvchilar kichik guruhlar bo‘linadilar. Keyin guruhlar o‘z hohishlariga ko‘ra bittadan yo‘nalishni tanlaydilar, shu yo‘nalish mazmunini yoritishning noan‘anaviy usullari, shakllarini hamda qanday qilib o‘z taqdimotlarini namoyish qilish yo‘llarini aniqlaydilar.

### **3- bosqich.** Taqdimot (15 daqiqa).

Yo'nalishlar:

Kollej tarixi va faoliyati.

Kollejdagi mutaxassisliklar va imkoniyatlar.

O'quvchilar hayoti va sharoitlar.

Ustozlar haqida – kollej pedagogik jamoasining faxriylari, murabbiylari haqida.

**4-bosqich.** Ijodiy ishlar muhokamasi (15 minut).

Guruhlarning chiqishidan so'ng trener trening qatnashchilari bilan birgalikda namoyish etilgan taqdimotlarni ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qiladi, ushbu trening ularda qanday taasurol qoldirgani, nimalarni bilib olishgani bilan qiziqadi, kerakli tavsiyalarni beradi va yaratilgan taqdimot asosida "Kollejim – faxrim mening" mavzusidagi ommaviy tadbirni uyushtiradi.

Demak, yuqoridagi mulohazalarga tayanib shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, pedagogika kolleji o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishga yo'naltirilgan auditoriyadan tashqari tarbiyaviy tadbirlar *birinchidan*, o'quvchidagi tanlangan kasbiga nisbatan qiziqish, hurmat, ishonch tuyg'ularini uyg'otib, shakllantirishi; *ikkinchidan*, u ta'lim jarayonida olingan nazariy bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, kasbiy yo'nalish bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish, bo'lg'usi kasbiy faoliyatga ongli munosabatni qaror toptirishi; *uchinchidan*, ular o'quvchilarning mavjud imkoniyatlari, ehtiyojlari doirasidan kelib chiqib tashkillashtirilishi; *to'rtinchidan*, o'z mazmunida ijtimoiy hayot o'zgarishlari, jamiyatning o'qituvchi shaxsining kasbiy tayyorgarligiga qo'yayotgan talablarini aks ettirgan bo'lishi darkor.

**«Pedagogik fikrlar rivojlanishida o'qituvchi mahorati masalalari» mavzusi yuzasidan seminar trening o'tkazish bo'yicha mashg'ulot materiallari**

## 6.1-ilova

**Blits-so'rov savollari**

Pedagogik mahorat nima?

Pedagogik mahorat asosiy komponentlarini ayting.

Pedagogik mahoratni egallash vositalari haqida nima bilasiz?

Hozirgi kunda o'qituvchi kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni to'g'risida nima bilasiz?

## 6.2-ilova

**B.B.B. texnikasi**

<b>№</b>	<b>Mavzu savoli</b>	<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>	<b>Bildim</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
2	Pedagogik mahorat nima?			
3	Pedagogik mahorat asosiy komponentlari			
4	Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta'minlovchi omillar			
5	Pedagogik mahorat fanining vazifalari haqida			
6	Pedagogik mahorat fanining asosiy tarkibiy qismlari haqida			
7	Pedagogik mahoratni egallash vositalari haqida			
8	Hozirgi kunda o'qituvchi kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni to'g'risida			

## B.B.B. metodi asosida tarqatma materiallar

№	Mavzu savoli	Bilaman «+» Bilmayman «-» ».	Bildim «+» Bilaolmadim «-».
1	2	3	4
1	Eng qadimgi davlardan eramizning XII asrlarigacha o'qituvchilik faoliyati to'g'risida ijtimoiy <b>qarashlarni</b>		
2.	Yunon faylasuflari asalarida o'qituvchilarning notiqlik san'ati <b>haqidagi g'oyalarni</b>		
3	Evropa olimlari o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish to'g'risida		
4.	Hozirgi davrda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish <b>haqida</b>		

## «Insert» usuli

**Insert** – samarali o'kish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

### Matnni belgilash tizimi

(V) – men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) - yangi ma'lumot

(-) – men bilgan narsaga zid

(-) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot

zarur

Tushunchalar	V	+	-	?
Qobiliyat				
Intuitsiya				
Ijodkorlik				
Sezgirlik				
O'qituvchi ntelekti				
Shaxs qobiliyatlari, tabiiy iste'dodlar va ularning farqi.				

### GLOSSARIY

**Akmeologiya** – akme – gullagan davr, oliy nuqta, yuqori cho'qqi) – o'qituvchi faoliyatida yuksak professionallikka, ya'ni kasbiy yetuklikka erishish bilan izohlanadi.

**Aksiologiya** – ijtimoiy sub'ektlar yaratgan pedagogik qadriyatlar yig'indisini ifodalab, insonni eng oliy qadriyat deb biladi va jamiyat rivojlanishining maqsadi deb hisoblaydi.

**Axloq** (lotincha «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi) - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

**Axloqiy tarbiya** – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

**Bilim olish** – borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

**Bilish** - ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni.

**Verbal** - bilim (ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zaki) yetkazib berish, ifoda etish.

**Dars** - bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

**Darslik** - muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

**Dunyogarash** - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.

**Insoniylik** - bolani shaxs sifatida qadrlaydigan, uning g'ururi va erkinligini himoyalash bilan xarakterlanadigan, inson manfaatini ijtimoiy institutlarni baholashning asosiy me'yori deb hisoblaydigan qarashlar tizimi.

**Innovatsiya** - yangilik, yangi g'oya kiritish.

**Interfaol metod** - ("inter" - o'zaro va "akt" - harakat qilmoq) o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini, o'quv axborotlarini o'zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantirishga, shuningdek, o'qitish maqsadlarining to'laqonli amalga oshirishga yordam beruvchi chora-tadbirlar majmuasi.

**«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»** - «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqloq vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

**Kasb-hunar kolleji** - o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasi.

**Ko'nikma** - olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi.

**Kommunikativlik** - bu o'qituvchining alohida xususiyati bo'lib,

unda o'quvchilar va hamkasblari bilan o'zaro hamkorlik muloqoti nazarda tutiladi. Bunda pedagogik faoliyatning samaradorligi uning muloqotchanligiga bog'liq bo'ladi.

**Madaniyat**–jamiyat, ijodiy kurslar va inson qobiliyatlarining tarixan rivojlanish darajasi bo'lib, insonlar hayoti va faoliyatini tashkil qilish shakllari, shuningdek, ular tomonidan yaratilayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topadi.

**Madaniyatlilik** – bola tarbiyasi va ijtimoiylashuvi jarayoni shu jamiyat va millatning ma'naviy va moddiy madaniyati asosida qurilishi lozim.

**Madaniyat** («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

**Malaka** – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

**Ma'naviyat** - (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui) – mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

**Motiv** – ma'lum ehtiyojlarni qondirilishi uchun asos bo'ladigan kishining ichki harakatlari mazmuni.

**Oila** – insonlar kundalik hayotining asosiy qismi-jinsiy munosabatlar, bolani dunyoga keltirish, bolalarning ilk ijtimoiylashuvi kabi holatlar sodir bo'ladigan ijtimoiy institut.

**Pedagogik tashxis** – o'quvchi va o'quvchilar jamoasi shaxsiyatini ta'lim-tarbiya jarayoniga individual va differensial yondashuvni ta'minlash uchun o'rganish.

**Pedagogik texnologiya** – ta'lim-tarbiyaning pedagogik samaradorligini oshiruvchi omillar tahlili orqali optimallasuvi jarayonidir. Pedagogik texnologiya bolalarni natijaviy qilib tarbiyalash, ta'lim berish va rivojlantirishga yordam beradi. Pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilari natijalilik, algoritm mavjudligi, iqtisod, loyihalashtirish, butunlik va boshqarish hisoblanadi. Bu pedagogik texnologiyalar ish samaradorligini oshirishi, har qanday sharoitlarda qo'llaniladi, bir-biri bilan bog'liq aniq ifodalangan bosqichlarga egaligidan dalolat beradi.



**O'z-o'zini anglash** – inson ongining eng oliy irodasi bo'lib, o'zi haqidagi tasavvurlar, xulq-atvori, faoliyati, ehtiyojlarini anglashdan namoyon bo'ladi.

**O'z-o'zini tarbiyalash** – insonning o'zida ijobiy xislatlarni shakllantirish va salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan, tashkillashtirilgan faoliyati.

**O'qitishni individuallashtirish** – ta'lim mazmunini o'quvchi shaxsi, uning individual xususiyatlariga moslash.

**O'quv dasturi** - aniq fanning maqsadidan, o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan soat va bilim hajmidan kelib chiqib tuzilgan va mavjud jamiyatning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini o'zida aks ettirgan davlat hujjati.

**O'quv rejasi** - mutaxassis shaxsi bilishi va o'zlashtirishi zarur deb belgilangan o'quv fanlari, ularni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjati.

**Qadriyatlar** – harakat usuli, metodikasi va uning individual yechimga aylanishi uchun shart-sharoit yaratish.

**Pedagogika** (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

**Pedagogik mahorat** – ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur.

**Rag'batlantirish** - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'ngilini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

**Sinf** - yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan, ma'lum o'quvchilar guruhi.

**Subbat** – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

**Tarbiya** – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

**Tarbiya jarayoni** - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

**Tarbiya mazmuni** - shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

**Tarbiya texnologiyasi** - tarbiyaviy jarayonga kompleks yondashuvni anglatib, bu tarbiyaviy ta'sir va o'zaro hamkorlik maqsadlari, vazifalari, mazmuni, metodi va shakllarining birligidan iboratdir.

**Ta'lim** – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida uilda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

**Ta'lim jarayoni** – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

**Ta'limning sinf-dars tizimi** - dars shaklida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo'yicha olib boriladigan ta'lim jarayoni.

**Test** - aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

**Ta'lim mazmuni** – ta'lim oluvchilarning o'qish jarayonida, egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimiga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarining aniq belgilangan doirasi.

**Texnologiya** – 1) Ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning xususiyati, shaklini o'zgartirish metodlari to'plami. 2) texnos – san'at, logos - ta'limot.

**Trening** – tahsil oluvchi faoliyatiga mo'ljallangan ta'lim shakli bo'lib, nazariy ma'lumotlarni amaliy mashqlar orqali o'zlashtirilishini ta'minlaydi. U ta'lim beruvchi tomonidan o'qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o'rganishni ko'zda tutadi.

**Topshiriq** - o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan usul.

**E'tiqod** - dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy, hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch.

**O'qituvchi (pedagog)** – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va

ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

**Jazolash** - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

**Jamoa** (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasini bo'lib, yig'irma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) - bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

**Jamoa an'analari** - jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

**Jamoaning norasmiy tuzilmasi** - jamoa a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik munosabatlarning umumiy tizimi, shuningdek, jamoada mikroguruhni tashkil qiluvchi ayrim shaxslar o'rtasidagi tanlash munosabatlarining mazmuni.

**Jamoaning rasmiy tuzilishi** - turli ko'rinishdagi jamoa faoliyatini yo'lga qo'yishning tashkiliy jihatlari.

**Faoliyat** - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T.: «Ma'naviyat», 2008-y. 173- b.
- Karimov I.A. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». – T.: Sharq NMK, 1997-y. 63- b.
- Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi» / Nashr uchun mas'ul T.Risqiev. Tuzuvchilar: Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. T.: Sharq NMK Bosh tahririyati, 1999-y. 181- b.
- Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz». – T.: «O'zbekiston», 2000-y. 112- b.
- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». – T.: Sharq NMK, 1997-y. 20-29-b.
- O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» // «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». – T.: Sharq NMK, 1997-y. 32-62-b.
- S.N.Alimxodjaeva, F.I.Haydarov. «Psixologik trening ishlanmasi». T.2008-y.
- Gorbushina O.P. «Psixologicheskij trening. Sekretiy provedeniya». SPb.: Piter, 2007-g. 176 - s. (Seriya «Prakticheskaya psixologiya»).
- Zaxarov V.P., Xryasheva N.Yu. «Sotsialno-psixologicheskij trening». L., 1990-g.
- «Praktikum po sotsialno-psixologicheskomu treningu». Pod.red. B.D.Parvigina. Sankt-Peterburg, 1994-g.
- Yemilyanov Yu.N. «Aktivnoe sotsialno-psixologicheskoe obuchenie». L.; LGU. 1985-g.
- Avloniy Abdulla. «Turkiy guliston yohud axloq». T.: «O'qituvchi», 1992-y.
- Azizxodjaeva N.N. «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat». – T.: «Moliya», 2003. 192-b.
- Azizxodjaeva N.N. «O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi.» T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000-y.
- Asqarova O'.M., Hayitboev M., Nishonov S.M. «Pedagogika». T.: «Talqin», 2008-y.
- Vigotskiy L.S. «Pedagogicheskaya psixologiya» /Pod red. V.V.Davidova. M.: «Pedagogika». 1991-g.
- Davletshin M.G. «Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi». T.: «O'zbekiston», 1999-y.

Zimnyaya I.A. «Pedagogicheskaya psixologiya» / Uchebn.posobie dlya studentov vissh.ped.ucheb.zavedeniy.–Rostov-na-Donu:RGU, 1997-g.

Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. «Direktorning ish kitobi (amaliy tavsiyalar)». T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2007-y.

Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. «Ta’limda innovatsion texnologiyalar» (ta’lim muassasalari pedagog-o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2008-y.

Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. «Tarbiyada innovatsion texnologiyalar» (ta’lim muassasalari pedagog-o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2010-y.

Yo’ldoshev J.G., Usmonov S.A. «Pedagogik texnologiya asoslari». T.: RTM, 2004-y.

Kodjaspirova G.M. «Pedagogika – v sxemax, tablitsax i oromyx konspektax». M.: «Vlados», 2006-g. 189- s.

Qurbonov Sh., Seytxalilov E. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: pedagogik ilmiy tadqiqot muammolari va yo’nalishlari». T.: «Fan», 1999-y. 189-b.

Tolipov O’Q., Usmonboeva M. «Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari». T.: «Fan», 2006-y. 247-b.

Haydarov F.I., Xalilova N.I. «Psixologiya fanlarini o’qitish metodikasi». / O’quv qo’llanma. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006-y. 178-b.

N.Egamberdieva, X. Ismoilova. «Texnologik yondashuv asosida pedagogika kolleji o’quvchilarining iqtisodiy madaniyatini shakllantirish.» / O’quv qo’llanma. T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2011-y.

M.T.Mirsolieva «Pedagogika kollejarida o’quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash». / Metodik qo’llanma. T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2011-y.

Egamberdieva N.M. «Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti» (Pedagogika oliy ta’lim muassasalari misolida): Pedagogika fanlari doktori. Ilmiy darajasining berish bo’yicha dissertatsiya. T., 2010-y, 332-b.

Turg’unboev K. Artikova M. «Pedagogik innovatsiya» «Andijon nashriyot-matbaa» MCHJ, 2011-y.

Turg’unboev K. Rizaev A. «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar». «Andijon nashriyot-matbaa» MCHJ, 2008-y.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
Treningning rivojlanish tarixi.....	5
Pedagogik treningning maqsadi va vazifalari, pedagogik treningda yechiladigan muammolar.....	8
Pedagogik treninglar quyidagi tamoyillarga asoslanadi .....	10
Treningda pedagogik gimnastika.....	11
Trening qonunlari.....	12
Treningning asosiy qonunlari.....	13
Tashkiliy qism. Tashkiliy qismning asosiy jihatlari.....	18
Treningni tashkil etishdagi muhim jihatlar....	18
Tanishuv bosqichini tashkil qilish. «Kutishlar» bosqichi.....	20
Xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish.....	22
Muloqot mavzusiga tegishli o'yinlar.....	30
Shaxslararo munosabatlar va nizoli vaziyatlarni hal etish usullari .....	31
Tanishuv o'yinlari.....	36
Ahillashtiruvchi o'yinlar.....	37
Ishchanlik muhitini yaratuvchi o'yinlar.....	42

“Pedagogik nazariya” va “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanlaridan o‘rganilayotgan mavzular bo‘yicha seminar treninglarni yo‘lga qo‘yish tavsifi.....	45
“O‘qitish metodlari” mavzusi yuzasidan “Zinama-zina” texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha mashg‘ulot ishlanmasi (ilovalar).....	78
Glossariy.....	94
Foydalanilgan adabiyotlar.....	100

*K. Turg'unboev, X. Ismoilova*

## **PEDAGOGIK TRENINGLAR**

Muharrir  
Texn. muharrir  
Musahhih  
Sahifalovchi

Nilufar Yuldasheva.  
Minura Mirzakarimova.  
Nigora Tojimatova.  
Hamidjon Parpiev.

Noshirlik litsenziyasi AI № 175. 11.06.2010 yil.

Bosmaxonaga 2013-yil 3-fevralda berildi. Bosishga 2013-yil 24-iyunda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 6,5 bosma taboq. Nashriyot tabog'i 6,0. Times New Roman garniturasida, ofset qog'ozi, ofset usulida chop etildi. Buyurtma 1197. Adadi 500 nusxada bo'lib shundan 30 donasi krill alifbosida chop etilgan.. Bahosi kelishilgan narxda.

«Andijon nashriyot-matbaa» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzili: 710000. Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy.